

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

NORIMOV ZAFAR

**O'SMIRLARDA OILAVIY QADRIYATLAR HAQIDAGI
TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

«5310200-Psixologiya» yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

dots. A.I.Saidov

Bitiruv malakaviy ishi «Psixologiya» kafedrasining 2014 yil 30-maydagi yig'ilishida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma № 10)

Kafedra mudiri:

p.f.n. dots. A. I. Saidov

BMI YADAKning 2014 yil _____iyundagi majlisida muhokama qilindi va
_____ ballga baholandi (bayonnoma №____)

YADAK raisi: _____

A'zolari: _____

Samarqand-2014

SamDU Pedagogika fakulteti psixologiya kafedrasining 2014 yil 30-may
navbatdagi № 10 bayonnomasidan

KO'CHIRMA

Qatnashdilar: kafedra a'zolarining 15 nafari.

Majlis raisi: p.f.n. dots.A. Saidov

Kotib: V. Axrorov

KUN TARTIBI

«Psixologiya» kafedraasi 2013-2014 o'quv yilida bajarilgan malakaviy ishlarining dastlabki himoyasi va ularni himoyaga tavsiya etish haqida.

Eshitildi 2013-2014 o'quv yilida bajarilgan malakaviy ishlari bilan majlis ahlini kafedra mudiri p.f.n. dots A.I.Saidov tanishtirdi va quyidagilarni bayon qildi

2013-2014 o'quv yilida Psixologiya yo'nalishining bitiruvchi kurs talabasi:
Norimov Zafarning «O'smirlarda oilaviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishini yozdi.

Ilmiy rahbari: dotsent A.Saidov ushbu mavzu bo'yicha yozgan ishini kafedraga taqdim etgan. Ish yuzasidan ilmiy rahbarning ijobiy mulohazasi bor.

Shuning uchun so'zni Norimov Zafarga bersak. U malakaviy bitiruv ishininng mazmuni bilan tanishtirdi.

Norimov Zafar malakaviy bitiruv ishining mazmuni, mohiyati haqida gapirib, mavzuning dolzarbligi, o'rganish darajasi, ilmiy, amaliy ahamiyati, amalga oshirgan ishlari haqida gapirdi.

Shundan so'ng talabaga o'qituvchilar dots. Saloxutdinova M o'qituvchilar Qodirov O va Nasimov S, Oblaqulov J savollar berishdi. Savollarga Norimov Zafar ijobiy javob berdi.

Qodirova Zeboning chiqishi, savol javoblardan so'ng mazkur malakaviy bitiruv ishi YADAKga himoyaga tavsiya etish haqida fikr mulohazalar bildirildi.

QAROR QILINDI

1. Pedagogika fakulteti Psixologiya yo'nalishining bitiruvchi kurs talabasi: Norimov Zafarning «O'smirlarda oilaviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari » mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi talabga javob beradi deb hisoblansin va u YADAKga himoyaga tavsiya etilsin.
2. Norimov Zafarning ushbu malakaviy bitiruv ishiga SamChTI dotsenti, E.Iskandarov taqrizchi deb belgilansin.

«Psixologiya» kafedrasining ushbu qarorini tasdiqlash fakultet dekanatidan so'ransin.

Majlis raisi:_____ **p.f.n. A.Saidov**

Kotib:_____ **V. Axrorov**

**Alisher Navoiy nomidagi SamDU Pedagogika fakulteti «5310200-
Psixologiya» yo`nalishi bitiruvchi kurs talabasi Norimov Zafarning
«O`smirlarda oilaviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishning
ijtimoiy psixologik xususiyatlari » mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy
rahbar**

MULOHAZASI

Xalqimizning madaniy-ma'naviy boyliklari va milliy qadriyatlarini to'la, odilona egallash va rivojlantirish hozirgi avlodlarning vazifasidir. Gap o'tmish madaniy-ma'naviy boyliklariga ega bo'lishdagina emas, balki uni chuqur egallab, yangi yuksak bosqichga ko'tara bilishdadir.

Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli milliy urf-odat, an'ana va udumlar: halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mehru-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan. Prezident I.A. Karimov, oilada hukmron bo'lishi lozim bo'lgan ma'naviy muhit va noyob udumlarimizning xosiyatlari haqida fikr bildirib: **“...Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-birlariga nisbatan ezgulik bilan mehr oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas... O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarning, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir”**, - deb ta'kidlaganlar.

Jamiyatimizning keyingi davridagi o'zgarishlar tufayli milliy an'analarni asrab qolish muammolari bir-biri bilan chigal tugun xosil qildi. Bu muammolarning har biriga juda katta e'tibor berish lozim. Har birining ortida tirik odamlar, butun-butun millatlarning taqdiri turibdi. Shuning uchun ham xalqlarning o'zligini anglab, milliy qadriyatlarni chuqurroq xis qila boshlaganligi sharoitida kishilarning an'anaviy urf-odatlari va qarashlarida aks etgan, tarixiy o'tmishning yangi saxifalarini ochishga imkon beradigan an'anaviy turmush madaniyatini o'rganish eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi. O'tmishdan bizning zamonamizgacha saqlanib kelinayotgan an'anaviy milliy udumlarni batafsil tadqiq qilish ularning shakllanishi va turmushda saqlanib qolishi qonuniyatlarini aniqlashga, bu esa ularning hozirgi hayotimiz uchun zarur tomonlarini tiklash va rivojlantirishga yordam beradi.

Mustaqil davlatda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari kundan-kunga O'zbekistonning buyuk kelajagiga ishonch, yurt tinchligi, Vatan farovonligiga aloqador muqaddas tushunchalarning mohiyatini anglash, milliy an'analar, urf-odat, kadriyatlar tushunchalarini yosh avlod qalbiga singdirish vazifalarini dolzarb mavzu sifatida ilgari surmoqda. Shu bois milliy qadriyatlar-an'ana va udumlar muxim ijtimoiy masala sifatida e'tirof etilayotgan bugungi kunda milliy qadriyatlarni yosh avlod ongi, tafakkuri, dunyoqarashiga singdirish tizimini tartibga solish ushbu ishning bosh muammosi hisoblanadi.

Norimov Zafar tomonidan yozilgan ushbu malakaviy bitiruv ishi uch bob, olti paragraf, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning birinchi bobi O'smir shaxsining shakllanishida oilaviy qadriyatlarning o'rni masalalarining ilmiy tadqiq etilganligi holati deb nomlangan bo'lib unda sharq mutafakkirlarining milliy qadriyatlar haqidagi qarashlari, oila va farzand masalalarining ilmiy tadqiq etilganligi va shaxs etnopsixologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan izlanishlar keltirib o'tilgan.

Ishning ikkinchi bobida Oilaviy qadriyatlar va uning etnopsixologik imkoniyatlari deb nomlanib o'zbek halqiga xos xarakterli xususiyatlar va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar va milliy an'ana, urf odatlar qadriyatlarning o'smir shaxsi tarbiyasidagi psixologik mexanizmlari bayon etilgan.

Ishning uchinchi bobida O'smir shaxsi shakllanishida oilaviy qadriyatlarni empirik jihatdan o'rganish natijalari va unda qo'llanilgan metodlar va metodikalarning qisqacha tavsifi va olingan natijalar tahlili ta'kidlab o'tilgan. Xulosa qismida har uchala bob haqida talaba mavzu bo'yicha o'z fikr mulohazalarni yaxshi bayon qilgan.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib Norimov Zafarning mazkur malakaviy bitiruv ishini ijobiy baholayman va uni himoyaga tavsiya etaman.

SamDU

psixologiya kafedrası dotsenti

A. Saidov

**Alisher Navoiy nomidagi SamDU Pedagogika fakulteti «5310200-
Psixologiya» yo`nalishi bitiruvchi kurs talabasi Norimov Zafarning «
O'smirlarda oilaviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishning
ijtimoiy psixologik xususiyatlari » mavzusiga
TAQRIZ**

Ma'naviyat yo'q joyda taraqqiyot ham, baxt-saodat ham kelajak ham bo'lmaydi. Ma'lumki, har bir jamiyatda kelajak taqdiri navqiron avlodlar qo'lida bo'lganidek, har bir xalqning ma'naviy va madaniy kamolot darajasi, eng avvalo, yoshlar tarbiyasida ko'rinadi. Istiqbolini o'ylagan har qanday ma'naviyati va madaniyati qanday shakllanishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

Istiklol tufayli odamlarning uz takdirlarini uzlari erkin belgilash imkoniyatlariga keng yo'l ochildi. Shu yunalishda odamlarning individual ravishda kamolotga, farovonlikka, tuginlikka intilish xususiyatlari ham ravshan namoyon bula boshladi.

Ma'naviyati yuksak, odob-axloqli, ma'rifatli, madaniyatli kishilargina elim, yurtim deb yashaydi, birovlariga himmat-muruvvat ko'rsatishni, yordamga muhtoj kishilarga ko'mak berish va to'g'ri yo'l ko'rsatishni o'zi uchun baxt deb biladi. Yuksak madaniyat sohibi bo'lgan insonlar boshiga mushkul ish tushgan kishining mushkulini oson qiladi, dardiga malham bo'ladi, hojatini chiqaradi, yetim-yesirlarni parvarish qiladi. Ma'naviyatli, ma'rifatli kishilarda milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'usi, oriyat kuchli bo'ladi. Ana shunday fazilatlariga ega bo'lgan kishilar o'z millati, elulusi manfaati sharafiga himoya qilishni o'zi uchun shon-sharaf deb biladi. Vataniga xavf tug'ilsa, uning ximoyasi yo'lida mol-dunyosini, jonu jahonni ayamaydi, fidoiylilik va qahramonlik namunalari ko'rsatadi.

Ma'naviy barkamol bo'lgan odamlar birovlar orqasidan ginaxonlik qilmaydi, gap tashimaydi, fisqu fasad, bo'htonga nisbatan murosasiz bo'ladi, mahalliychilikka yo'l qo'ymaydi, guruhbozlikka, millat ajratishlarga qarshi astoydil kurashadi, milliy birdamlik, milliy hamkorlik va milliy hamjihatlik, o'zaro do'stlikni qaror toptirish va mustahkamlash yo'lida tinmay harakat qiladi.

Umuminsoniy kadriyatlar barcha xalqlar xayot tarzi asosida yaratilgan va umumbashariy harakterga ega bo'lgan kadriyatlaridir. O'zbekistonning demokratik jamiyat kurish harakatlari: erkinlik, tenglik, ijtimoiy xakikat, ijtimoiy adolat, konun ustivorligi singari umumbashariy tamoyillarga bo'lganextiyojini yanada oshiradi.

Norimov Zafar tomonidan yozilgan ushbu malakaviy bitiruv ishi uch bob, olti paragraf, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning birinchi bobi O'smir shaxsining shakllanishida oilaviy qadriyatlarning o'rni masalalarining ilmiy tadqiq etilganligi holati deb nomlangan bo'lib unda sharq mutafakkirlarining milliy qadriyatlar haqidagi qarashlari, oila va farzand masalalarining ilmiy tadqiq etilganligi va shaxs etnopsixologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan izlanishlar keltirib o'tilgan.

Ishning ikkinchi bobida Oilaviy qadriyatlar va uning etnopsixologik imkoniyatlari deb nomlanib o'zbek halqiga xos xarakterli xususiyatlar va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar va milliy an'ana, urf odatlar qadriyatlarning o'smir shaxsi tarbiyasidagi psixologik mexanezmlari bayon etilgan.

Ishning uchinchi bobida O'smir shaxsi shakllanishida oilaviy qadriyatlarni empirik jihatdan o'rganish natijalari va unda qo'llanilgan metodlar va metodikalarning qisqacha tavsifi va olingan natijalar tahlili ta'kidlab o'tilgan. Xulosa qismida har uchala bob haqida talaba mavzu bo'yicha o'z fikr mulohazalarni yaxshi bayon qilgan.

Umuman olganda mazkur malakaviy bitiruv ishi mavzuga mos ravishda mazmunli qilib yoritilgan.

Ishni himoyaga tavsiya etaman.

Sam CHTI dotsenti :

E.Iskandarov

MUNDARIJA

Kirish.....

I BOB. O'smir shaxsining shakllanishida oilaviy qadriyatlarning o'rni masalalarining ilmiy tadqiq etilganligi holati

1.1. Sharq mutafakkirlarining milliy (oilaviy) qadriyatlar haqidagi qarashlari.....

1.2. O'zbekistonda oila va farzand masalalarining ilmiy tadqiq etilganligi holati.....

1.3. Shaxs etnopsixologik xususiyatlari va stereotiplarining shakllanishini o'rganish bo'yicha olib borilgan izlanishlar.....

II BOB. Oilaviy qadriyatlar va uning etnopsixologik imkoniyatlari.

2.1. O'zbek xalqiga xos harakterli xususiyatlar va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar.....

2.2. Milliy an'ana, urf-odat, udum va qadriyatlarining o'smir shaxsi tarbiyasidagi psixologik mexanizmlari.....

III BOB. O'SMIR SHAXSI SHAKLLANISHIDA OILAVIY QADRIYATLARNI EMPIRIK JIHATDAN O'RGANISH NATIJALARI.

3.1. Tadqiqotda qo'llaniladigan asosiy metodlar va metodikalarning qisqacha tavsifi va olingan natijalar taxlili.....

Xulosalar.....

Tavsiyalar.....

Foydalanilgan adabiyotlar.....

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Madaniy-ma'naviy merosimiz, asriy an'analar-o'tmishdan, avlod-ajdodlarimizdan bizlarga yetib kelgan, bugungi hayotimiz uchun xizmat qilayotgan eng katta ma'naviy boylik, buyuk xazinadir. **“Bu Xazina insonga hayotda baqarorlik bag'ishlaydi, uning qarashlari shunchaki boylik orttirish yo'lida kun ko'rishga yo'l qo'ymaydi, fojialar vaqtida omon saqlab qoladi va moddiy qiyinchilik kunlarida irodani mustahkamlaydi”.**

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ma'naviyat masalalariga, uning yoshlarda shakllanishi va rivojlanish muammosiga ulkan ahamiyat berib kelinmoqda. Ma'naviyatni yuksaltirish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Respublikamiz Prezidenti I Karimovning ma'naviyat masalalari bo'yicha qator Farmonlari chiqishi va Qarorlari qabul qilinishi, mamlakatimizda Ma'naviyat va ma'rifat kengashi tuzilishi, Ma'naviyat targ'ibot Markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi va ularning joylardagi bo'linmalari tashkil etilishi va faol ishlab turishi, mamlakatimizda falsafa, madaniyatshunoslik, ma'naviyat asoslari, pedagogika singari fanlar mutaxassislari tomonidan yuzlab monografiyalar, risolalar, maqolalar tayyorlanayotgani va chop etilayotgani, shu fanlar bo'yicha ma'naviyat mavzusiga aloqador o'nlab dissertasiyalar tayyorlanayotgani mamlakatimizda ma'naviyat masalalariga berilayotgan e'tiborning ko'lamidan dalolat beradi. Ayni paytda psixologiya fanida ma'naviyat masalalariga bag'ishlab tayyorlangan va chop etilgan monografiya va risolalarning juda ham kam ekanligi, ishlarining deyarli yo'qligi ko'zga tashlanadi. Holbuki, ma'naviyat va uning shakllanishidagi psixologik jihatlarni tadqiq qilish boshqa fanlarda olib borilayotgan tadqiqotlar va mamlakatimizda shu sohada olib borilayotgan amaliy ishlarining samaradorligini oshirishga jiddiy turtki berishi mumkin.

Mamlakatimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati ma'naviy barkamol, ruhan yetuk shaxslar jamiyati bo'lishi ham mavzuning dolzarbligini ko'rsatadigan omillardan biridir. Mavzuning dolzarbligini belgilaydigan yana bir muhim jihat shundaki, bizning jamiyatimizga yot bo'lgan kuchlar: terroristlar, diniy aqidaparastlar va boshqa buzg'unchi g'oyalarni tashuvchilar asosiy e'tiborni o'smirlar va yoshlarni o'z tomonlariga ag'darib olishga harakat qilmoqdalar. Ma'naviyatga qilingan tahdid mamlakatni inqirozga olib kelishi mumkin. Bu haqda Prezident I.Karimov shunday yozadi: **“Nega deganda, insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi”.**

Shuning uchun o'smirlarni zo'ravon va tajovuzkor kuchlarning qo'liga berib qo'ymaslik vazifasi ham ularning ma'naviyati shakllanishiga, bu jarayonning

psixologik jihatlarini tadqiq etishga birinchi darajali vazifa sifatida yondashishni taqozo etadi.

Muammoning psixologik jihatlarini, ayniqsa yoshlar va o'smirlar ma'naviyati shakllanishi va rivojlanishida oilaviy qadriyatlarining o'rni muammosini psixologik jihatlarini o'rganish naqadar muhimligi va ayni paytda mazkur muammo bo'yicha maxsus o'tkazilgan tadqiqotlarning yo'qligi ham mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Xalqimizning madaniy-ma'naviy boyliklari va milliy qadriyatlarini to'la, odilona egallash va rivojlantirish hozirgi avlodlarning vazifasidir. Gap o'tmish madaniy-ma'naviy boyliklariga ega bo'lishdagina emas, balki uni chuqur egallab, yangi yuksak bosqichiga ko'tara bilishdadir.

Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli milliy urf-odat, an'ana va udumlar: halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mehru-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan. Prezident I.A. Karimov, oilada hukmron bo'lishi lozim bo'lgan ma'naviy muhit va noyob udumlarimizning xosiyatlari haqida fikr bildirib: **"...Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-birlariga nisbatan ezgulik bilan mehr oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas... O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarning, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir"**, - deb ta'kidlaganlar.

Jamiyatimizning keyingi davridagi o'zgarishlar tufayli milliy an'analarni asrab qolish muammolari bir-biri bilan chigal tugun xosil qildi. Bu muammolarning har biriga juda katta e'tibor berish lozim. Har birining ortida tirik odamlar, butun-butun millatlarning taqdiri turibdi. Shuning uchun ham xalqlarning o'zligini anglab, milliy qadriyatlarni chuqurroq xis qila boshlaganligi sharoitida kishilarning an'anaviy urf-odatlari va qarashlarida aks etgan, tarixiy o'tmishning yangi saxifalarini ochishga imkon beradigan an'anaviy turmush madaniyatini o'rganish eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi. O'tmishdan bizning zamonamizgacha saqlanib kelinayotgan an'anaviy milliy udumlarni batafsil tadqiq qilish ularning shakllanishi va turmushda saqlanib qolishi qonuniyatlarini aniqlashga, bu esa ularning hozirgi hayotimiz uchun zarur tomonlarini tiklash va rivojlantirishga yordam beradi.

Mustaqil davlatda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari kundan-kunga O'zbekistonning buyuk kelajagiga ishonch, yurt tinchligi, Vatan farovonligiga aloqador muqaddas tushunchalarning mohiyatini anglash, milliy an'analar, urf-odat, kadriyatlar tushunchalarini yosh avlod qalbiga singdirish vazifalarini dolzarb mavzu sifatida ilgari surmoqda. Shu bois milliy qadriyatlar-an'ana va udumlar muxim ijtimoiy masala sifatida e'tirof etilayotgan bugungi kunda milliy qadriyatlarni yosh avlod ongi, tafakkuri, dunyoqarashiga singdirish tizimini tartibga solish ushbu ishning bosh muammosi hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi.

Bitiruv malakaviy ishi oilaviy qadriyatlar va ularni o'smir shaxsi shakllanishidagi o'rni, o'smirlar ongida oilaviy qadritlar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishning o'ziga xos yo'llarini o'rganish, tahlil qilish orqali yoshlarda ijobiy sifatlarni shakllantirish va milliy dunyoqarashni tarbiyalash usullarini ishlab chiqishdir.

Ilmiy tadqiqotning predmeti bo'lib, o'smir shaxsi ongida shakllangan oilaviy qadriyatlariga aloqador bo'lgan tushuncha, tasavvur va g'oyalar hamda ularning ijtimoiy xulqdagi ko'rinishlari xizmat qiladi.

Tadqiqotning obyekti.

Tadqiqotning obyekti sifatida Samarqand tumanidagi 31-maktabda o'qiyotgan 4- 9 sinf o'quvchilari tanlab olindi. olingan.

Ilmiy tadqiqotning vazifalari

1. Oilaviy qadriyatlar to'g'risidagi nazariy manbalarni o'rganib, ilmiy jixatdan tahlil qilish.
2. Hozirgi kungacha an'anaga aylangan milliy urf-odatlar, kadriyatlar va an'analarning psixologik mohiyatini ilmiy jixatdan tahlil qilish.
3. O'smirlarda oilaviy kadriyatlar va urf-odatga nisbatan munosabatlari tizimini aniqlash va tahlil qilish.
4. Amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy farazi.

Milliy dunyoqarashni tarbiyalash yoshlarda milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimiz-udumlarimizga nisbatan muhabbat tuyg'ularini qaror toptirishda muhim rol o'ynashi mumkin.

Milliy udumlar, urf-odat, oilaviy qadriyatlarning tarbiyaviy ta'sirida o'smir shaxsi ongida namoyon bo'ladigan ilg'or oilaviy milliy an'analari, ijobiy rasm-rusmlarga tegishli xulq-atvor yoshlarda udumlarga ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Tadqiqotning metodologik asosi. Tadqiqotda Sharq mutafakkirlari Abu Nasr al-Farobiy, Al - Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Alisher Navoiy kabi buyuk ajdodlarimizning ilmiy meroslari, mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning milliy qadriyatlar, urf-odat, kadriyatlar masalasiga bag'ishlangan hamda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni chuqurlashtirishga yo'naltirilgan qarorlari metodologik manba bo'lib xizmat qiladi.

Bular bilan birga pedagogika,etika va estetika, madaniyatshunoslik, ma'naviyat,adabiyot va axloqshunoslik yo'nalishlarida chop etilayotgan milliy qadriyatlar to'g'risidagi qator risola va kitoblardan ham o'ziga xos metodologik manba sifatida foydalaniladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotni amalga oshirishda ko'zda tutilgan ilmiy farazlarni isbotlash maqsadida psixodiagnostik metodlardan: so'rovnomalar, kuzatish, maxsus psixologik testlar, hamda anketa vositasida o'rganildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Milliy qadriyatlarimiz hisoblanmish-an'anaviy udumlarimiz, urf-odat va kadriyatlarimiz to'g'risida bir qancha tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lsa ham o'smir shaxsi ongiga yetkazishning ta'sirchan vositasi sifatida oilalardagi milliy an'analari, qadriyatlar va urf-odatlarning namoyon bo'lishi, yoshlarning bu xaqdagi tasavvurlari hamda ularning salbiy va

ijobiy ta'sirlarini inobatga olgan maxsus tadqiqotlar O'zbekiston sharoitida hali o'rganilmagan.

Bitiruv malakaviy ish o'smirlar ongida oilaviy qadriyatlar va ularning psixologik imkoniyatlari tizimi va bu bilan bog'liq tushunchalar ijtimoiy psixologik tadqiqotning predmetiga aylantirildi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati. Tadqiqotning nazariy ahamiyati bevosita uning ilmiy yangiligi hamda qo'llanilgan usullarining ishonchliligidan kelib chiqadi. Tadqiqot natijalari etnopsixologiya va ijtimoiy psixologiyani yangi nazariy xulosalar bilan boyitadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqotda isbotlanadigan ilmiy xulosa va tavsiyalardan "Oila psixologiyasi", "Etnopsixologiya" kurslarini o'qitishda, keng jamoatchilikda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirishda foydalanish mumkin.

I BOB. O'SMIR SHAXSINING SHAKLLANISHIDA OILAVIY QADRIYATLARINING O'RNI MASALALARINING ILMIY TADQIQ ETILGANLIGI HOLATI

1.1. Sharq mutafakkirlarining milliy (oilaviy) qadriyatlar haqidagi qarashlari

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi munosabati bilan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yangi bosqichiga ko'tarildi. Yangi demokratik jamiyatni barpo qilishning muhim omili hisoblangan umuminsoniy va umumbashariy qadriyatlarga hamda milliy an'analar rivojiga keng imkoniyatlar ochib berildi.

Markaziy Osiyoda, jumladan O'zbekistonda tarbiya borasida to'plangan tarbiya uslublari kamol topayotgan yosh avlod ta'limi hamda tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. O'zbek halqi barcha sharq halqlari kabi yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga juda katta ahamiyat bergan. Bu an'ana avloddan - avlodga, halq donishmandligining timsoli sifatida o'tib kelgan va milliy madaniyatimizda o'ziga xos o'rin tutadi.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida ta'lim-tarbiya masalalari muhim o'rinni egallaydi. Ayniqsa ular yoshlarni oilaviy qadriyatlar asosida tarbiyalashga katta e'tibor berganlar.

Qolaversa, sharqda shunday diniy – tasavvufiy asarlar ham mavjudki, ularda yosh avlodni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash masalalari ilgari surilgan bo'lib, ular ma'naviyatimiz tarixida munosib o'rinni egallaydi.

Ayniqsa, Sayyid Muhammad ibn Sayyid Baxouddin Naqshbandiyni ta'lim-tarbiya haqidagi fikr-mulohazalari va pandu-nasihatlari g'oyat qimmatlidir. Baxouddin Naqshbandiy barkamol insonni tarbiyalashni, dastlab odobdan boshlanishini ta'kidlab, shunday degan edi. "Adab hulqini chiroyli qilish, so'z va fe'lni soz qilishdir". "Adab saqlash-muxabbat samarasi, yana muxabbat daraxtining urug'i hamdir". Agar adabdan ozgina nuqsonga yo'l qo'ysang ham, nimaiki qilmagin, beadablik ko'rinadi. Odam o'zini bir xil sifat va ko'rinishda olib yurishi lozim, toki odamlarda unga tasarruf (ta'sir qilish) ta'masi paydo bo'lmagan bo'lsin. Naqshbandiy do'stlik va o'rtoqlikka katta e'tibor bergan va agar do'st aybiga boqsangiz, do'stsiz qolasiz, hyech kim dunyoda beayb emas, degan purhikmat satrlarni qoldirib ketgan.

Sharq mutafakkirlari o'z zamonasidayoq yosh avlod tarbiyasining ijtimoiy vaziyat (shart - sharoit) bilan bog'liq ekanligini, bu vaziyatni o'zgartirilishi uning tarbiyasiga ta'sir qilishi tabiiydir,-degan xulosaga kelishgan.

Markaziy Osiyoda tasavvuf ta'limotini Al-Xorazmiy, Abu-Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Xoja Ahmad Yassaviy, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Imom at-Termiziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Amir Temur va boshqa yirik siymolar rivojlantirishgan. Bular jumlasiga Yusuf Hos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Xibbatul-xaqoyiq", Kaykovusning "Qobusnoma", Shayx Sa'diyni "Bo'ston va Guliston", A.Jomiyning "Bahoriston", Alisher Navoiyning "Hayratul Abror" va "Maxbubul qulub" va hokazolarning asarlarini kiritishimiz mumkin.

Abu Nasr Muhammad Forobiy "Har bir shaxs munosib odam, unga ta'lim va tarbiya zarurdir. U ta'lim orqali nazariy kamolotga erishadi, tarbiya orqali esa,

kishilar bilan muloqotning qadr-qimmatini va amaliy faoliyatni o'rganadi", degan. Forobiy bolalarning fe'l-atvoriga qarab tarbiya jarayonida "qattiq" yoki "yumshoq" usullardan foydalanish kerak, deb hisoblagan.

Forobiyning ta'lim-tarbiya xaqidagi g'oyalari avvalo Ollohnı bilishga, insoniyat yaratgan ilmiy bilimlarnı o'zlashtirishga qaratilgan. U ta'lim-tarbiyaning vosita va usullarini asoslab bergan (15).

Abu Rayhon Muhammad bin Ahmad Al-Beruniyning (973-1051) oilada ota-ona va farzand tarbiyasi xususidagi fikrlari e'tiborga loyiqdir. Faylasuf, olim o'zining "Hindiston", "Minerologiya", "Kitob-as-Saydona", "Geodeziya", "Yodgorliklar", "E'tiqodlar va dinlar haqida" va boshqa asarlarida odob, ahloq, nafosat, mehnat tarbiyasi, oila va oilada, ota-ona va farzand tarbiyasi xususida qimmatli fikrlarnı bildirgan. Beruniyning oilada ahloq-odob tarbiyasini amalga oshirish va uning uslublarini takomillashtirish sohasidagi fikrlari juda diqqatga sazovordir.

Abu Rayhon Beruniy insoniyatning istiqbolli kelajak sari rivojlanib borishida ilm-fanning, madaniyat va ma'naviyatning, kishi dunyoqarashining hamda mehnatning o'rni beqiyos ekanligini uqtiradi. Beruniy kishilar hayotidagi yomonlikni qoralaydi. Uning fikricha, bu illatni yo'qotishning asriy yo'li uning ildizlarini topish va kesib tashlashdir. Yomonlikning shoxobchalari ko'p, ammo ularning asosi uch narsa: ta'ma, g'azab va ilmsizlikdir. Agarda bu asoslar qirqib tashlansa, shoxobchalar quriydi.

Buyuk qomusiy olim sifatida Sharq mutafakkirlarining yana biri, Abu Ali Ibn Sinodir (980-1037). Uning pedagogik-psixologik qarashlari ilmiy asosda qurilgan bo'lib, u bolaning fe'l-atvori va tasavvurlari tariqasida umuminsoniy g'oyalar qo'llanilishini ishlab chiqqan.

Ibn Sinoning yozishicha, insonning eng yaxshi fazilatlaridan biri o'zining yomon axloqiy xislatlarini anglab, ularni yo'qotishga intilishidir. Uning yaxshi xislatlari ichida boshqalarga e'tibor va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lishi maxsus o'rin tutadi. Kimki o'zining axloqini tarbiyalash uchun o'z oldiga qo'ygan vazifasini bajarib, o'z xulqini tuzatishga intilsa, uiga hıyech narsa qo'rquinchli emas. Kimki o'z xatosini tuzatolsa, u boshqalarning tarbiyasi haqida g'amxo'rlik qila olishi mumkin.

Ahmad Yugnakiy o'z zamonasining iste'dodli shoiri, adibi, donishmandidir. U o'z asarlarida Turkiston xalqlariga Qur'oni Karim oyatlari va payg'ambar Muhammad alayhissalom hadislari asosida ta'lim-tarbiya berish g'oyasini ilgari suradi. Ahmad Yugnakiy o'zining pedagogik va psixologik qarashlarida sir saqlash xislatlari haqida ham fikr bildiradi. Uning fikricha, diniy ma'naviy e'tiqod paydo bo'lishi natijasida or-nomus, iffat, izzat, hurmat, g'azab, yovo'zlik kabi xis-tuyg'ular hosil bo'lgan. Bu his-tuyg'ular ta'sirida insonlarda ezgulik bilan yovo'zlik xislatlari kuchayib savob yoki gunohlar sodir bo'ladi, deydi.

IX asrning buyuk mutafakkiri va shoiri Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" nomli shoh asarida inson va uning hayotiga oid qarashlarini bayon qiladi. U odamning Olloh tomonidan yaratilganligini hamda odamning dunyoga kelishi va uning kelajakda qanday odam bo'lib voyaga yetishi va kelib chiqishiga, hayotda shug'ullanayotgan faoliyatiga, atrofga nisbatan munosabatlariga bog'liqligini aytib "Kimning nasli otadan boshlab toza bo'lsa,

undan elga yaxshilik, ko'p manfaatlar keladi", deb hisoblaydi. Yusuf Xos Hojib "Qutadgu bilig" dostonida til odobi, sevgi va sadoqat, rostgo'ylik va halollik kabi masalalar bo'yicha hikmatli so'zlarni bayon qiladi, mayxo'rlik va mutakabbirlikni tanqid qiladi, kishining yurish-turishi, o'zini tutishi haqida o'git beradi.

Abulqosim Mahmud ibn Umar Zamahshariy–zabardast o'zbek olimi, arabshunos, shoir va yozuvchi. Zamahshariy o'zidan kattalarni hurmatlash, bolani tarbiyalash va unda ota–onaning vazifalari haqida qimmatli fikrlarni bayon qilgan. Uning fikricha, ota–ona bolani xushhulq, odobli, mehnatsevar, aql-idrokli qilib tarbiyalamoqchi ekan, avvalo uni me'yoridan ortiq erkalamasligi, doimo nazoratda tutishi kerak. "Hayvonni qashlasa shodlanib egasin tepadi, odam bolasi erkalansa ota–onasini azobga qo'yadi", degan fikrlarni bildirgan.

Abdurahmon Jomiy–bolalarni tarbiyasi haqida bir qancha asarlar yaratadi. Bunday asarlar jumlasiga "Bahoriston", "Xirodnomai Iskandariy", "Guxfatul axror", "Silsilatus zahab" va boshqa asarlarini kiritish mumkin. Bu asarlarda ta'lim–tarbiya tanlash, yaxshi xislat, adab egallash borasida qator ta'limiy va uslubiy fikrlar bayon etiladi. Jomiy tarbiya orqali insonni o'zgartirish, aqliy qobiliyatini o'stirish mumkin, deyishi bilan birga, bola tarbiyasi bilan juda ham yoshligidan boshlab shug'ullanish lozim; chunki, go'dakligida kishi hyech qanday nuqsonsiz, yaxshi-yomon odatlardan xoli bo'ladi, deydi. Jomiy, o'zining nasl–nasabini maqtab, ota–onasining davlatiga ishonib, taralla–bedod qilib yurgan yoshlarni qattiq tanqid qiladi.

Markaziy Osiyoda keyingi ilmiy-madaniy taraqqiyot sohibqiron Amir Temur (1335-1405) va temuriylar sulolasi hukmronligi davrida yuz berdi. Buyuk bobokalonimiz har vaqt: «Insonparvarlik va mardlikni Olloh ham, xalq ham ulug'laydi», degan hikmatli so'zini takrorlashni xush ko'rgan va hayotda o'zi bunga amal qilgan. Shuningdek, Amir Temur odob-axloq, iymon, e'tiqod, ta'lim–tarbiya sohasida o'zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir.

Jahon madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkirlar orasida faxrli o'rin sohibi, Alisher Navoiy (1441-1501) o'zining badiiy asarlarida komil inson obrazini yaratib, ta'lim–tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ifodalagan bo'lsa, ta'limiy–ahloqiy asarlarida esa, komil insonni shakllanti-rishning mazmuni, yo'llari, usullarini bayon etgan.

A. Navoiy o'z asarlarida tasavvurlaridagi bola tarbiyasi bilan oilada va maktabda shug'ullanib namuna uslubida foydalanishni tavsiya etadi. Shu bilan birga, ta'lim–tarbiya ota–ona hamda o'qituvchi tomonidan olib borilishi lozim, deb ta'kidlaydi.

A.Navoiy bolalarga jismoniy jazo berish emas, balki xushmuomalalik bilan muomalada bo'lishni tavsiya etgan, lekin bunda Navoiy o'qituvchining talabchan bo'lishiga undagani, ammo har ikkalasida ham ma'lum me'yorni bilishi zarurligini uqtirgani ma'lumdur. A.Navoiy tarbiya haqida gapirar ekan, "Qobiliyatlini tarbiya qilmaslik zulmdir va qobiliyatsizga tarbiya xayf", deb ta'kidlaydi. Alisher Navoiy ta'lim–tarbiya masalalariga alohida e'tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini va talablarini ko'rsatadi. U ta'limda ilmiylikka asoslanganlik, kabi talablarni asos qilib oladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) bola tarbiyasi haqida, u farzand tarbiyasida qo'llanilishi lozim bo'lgan usullar deb:

1. Ota–onaning farmoni farzand uchun vojibligi.
2. Barcha insonlarga yaqinlikni o'rgatish.
3. Har bir paytda o'zingizni ibrat aylab ko'rsatish.

4. Mustaqillik, qat'iylik va uddaburonlik uchun bolaga doimiy talablarni qo'yish va uning ijrosini kuzatishlarini hisoblaydi. Boburning ta'lim–tarbiyaviy qarashlaridagi bosh masala Vatanga cheksiz muxabbatdir. Uning shu mavzudagi she'rlari kitobxonni Ona Vatanni sevishtga, unga fidoyi, sodiq bo'lishga, o'z xalqiga xizmat qilishga chorlaydi, o'quvchining qalbida yuksak insonparvarlik tuyg'ularini uyg'otadi.

Asrimizning yetuk ma'rifatparvari (1878-1934) Abdulla Avloniyning 1913 yildagi yozgan “Turkiy guliston yohud ahloq” asarida bola tarbiyasi borasida va umuman uning ijtimoiy roli falsafiy–pedagogik jihatdan keng ochib berilgan. Alloma tarbiya jarayonida oila va jamoatchilikning rolini, uning hamkorligini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, barkamol shaxsning ko'p qirrali bilimlarga ega bo'lishi, yaxshi bir kasbu-korning sirlarini egallash bir tomondan ijtimoiy muhit va oilaviy sharoitga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan bolalarning g'ayrat va shijoatiga, sa'yharakatlariga, xohish–istaklariga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, taniqli shoir va pedagog A.Avloniy “Bolaning sog'ligi va baxti, avvalo uning yaxshi tarbiyalanishiga, badanning tozaligiga, e'tiqod hosil qilishiga, yaxshi hulqqa ega bo'lishiga, uni g'ayri ahloqiy harakatlardan ogohlantirilishiga bog'liq”,-degan edi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, islom olamining muqaddas kitoblari Qur'oni Karim, Muhammad alayhissalom o'gitlari, hadislari va Sharq mutafakkirlarining bola tarbiyasi, ma'naviyati, bolalar va yoshlarni yetuk, barkamol inson qilib tarbiyalashda hamda shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rnini o'rganishga doir juda ko'plab qimmatli psixologik–pedagogik qarashlarni, maslahat va fikrlarni olish mumkin.

1.2. O'zbekistonda oila va farzand masalalarining ilmiy tadqiq etilganligi holati

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida keltirilishicha: «oilalar jamiyatning asosiy bo'g'inidir». Oilalar tinchligi, uning barqarorligi, oilalar a'zolarining hamjihatligi ko'p jihatdan shu oilani tashkil etuvchilarining o'zaro munosabatlariga, ularning oilaviy rollar haqidagi tasavvurlarining aniq va to'g'ri shakllanganligiga bog'liq. Bunday ijtimoiy tasavvurlar o'zaro munosabatlar jarayonida, oiladagi ijtimoiy-psixologik muhit va tarbiyaning qay yo'sinda yo'lga qo'yilganligiga bog'liqdir. O'zbek oilasida ijtimoiy tasavvurlarning, jumladan, oilaviy rollar haqidagi tasavvurlarning qanday ekanligi, ularning jamiyat holati, oilalar baxt saodati bilan bog'liqligi mustaqil O'zbekiston sharoitida o'ziga xos yetuklikka ega.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi «Qonun»ining 30-moddasida shunday deyiladi: «Ota-onalar yoki qonuniy vakillarning vazifalari, voyaga yetmagan bolalarning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari

shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar».

Farzand dunyoga kelgan birinchi kunidanoq ota-ona, aka-opalari mehramuxabbatidan ozuqalanadi. Demak, bolaning ma'naviy-madaniy shakllanishida oilaning roli beqiyosdir. Ota-onaning o'ziga talabchan bo'lishi, o'z oilasini hurmat qilishi, ota-ona o'zining har bir qadamini nazorat ostiga olishi lozim bo'lgan tarbiyaning birinchi va eng asosiy metodi hisoblanadi.

Ishda ta'kidlanganidek, o'smir shaxsini shakllantirish, jamoiyatda shaxslarning o'zaro munosabatlari muammolarini o'rganish doimo insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida keng ilmiy jamoatchilik diqqat e'tiborida bo'lgan. Bu borada o'zbek xalqining urf-odatlarini va milliy (fenomenligi) etnik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha Respublikamizning qadriyatshunos olimlari o'zlarining munosib xissalarini qo'shganlar.

Hozirgi kunda o'smir shaxsining etnik stereotip va etnik ustanovkalarini o'rganish maqsadida jumhuriyatimizning pedagog va psixolog olimlari o'smir shaxsning har toonlama kamol toptirish jarayonida milliy qadriyatlar va o'zbek xalqining etnopsixologik xususiyatlari masalalarini o'rganishda o'z xissalarini qo'shmoqdalar.

Oilada bola tarbiyasi yuzasidan pedagog olimlardan D.J.Sharipova, M.Inomova, A.K.Munavvarov, O.To'rayeva va boshqalar, faylasuflardan J.T.Tulenov, E.Yu.Yusupov, I.M.Mo'minov va boshqalar; psixolog olimlardan M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, N.A.Sog'inov, E.N.Sattarov, T.M.Adizova, G.M.Mamatov, A.M.Jabbarov, R.E.Gaynutdinov, R.I.Sunnatova, B.M.Umarov, Sh.A.Do'stmuhamedova, F.A.Akramova, M.Sh.Rasulova, N.S.Solayeva va boshqalar ilmiy jihatdan o'zbek xalqining etnik ustanovkalarini o'rganish maqsadida izlanishlar olib borishgan.

D.J.Sharipova - o'z izlanishlarini yosh bolasi bor ota-onalar o'rtasida tibbiy-pedagogik bilimlarni hal qilish borasida bir qancha ishlarni amalga oshirgan. U, oilada bolaning sog'lom, yetuk bo'lib tarbiyalanishi uchun ota-ona har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi xuddi shu holat oilada bola tarbiyasiga ta'sir qilishi, oila oldida turgan tarbiyaviy vazifalarni aniq va ravshan bilish zarurligini, o'z bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishlarini, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlarini tanlashga ijodiy yondoshuvlari lozimligini ko'rsatadi (155).

Milliy oilaviy tarbiya zahirida shaxs milliy madaniy merosidan bahramandlik, o'z xalqi tarixi, san'ati, ma'naviy-ruhiy qadriyatlarini, dinni puxta bilishlari, milliy o'zligini anglashlari, vatan, xalq, millat manfaatlari uchun ma'sullik, milliy g'urur, milliy harakarning sifat ko'rsatkichlaridir; shaxsda milliy haraktni shakllantirishda milliy ahloqiy madaniyatining ahamiyati benihoya kattadir.

M.O.Inomova ta'kidlaganidek, tarbiya nazariyasi nuqtai-nazaridan milliy haraktni shakllantirish, bu shaxsning aqliy, ahloqiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, estetik, badiy kabi ko'p qirrali tarkibiy qismlarini yaxlit jarayon sifatida amalga oshirishni anglatadi. Bunda milliy tarbiya shaxsni o'z hulqi, millati bilan bog'laydi.

A.K.Munavvarovning izlanishlariga ko'ra, har bir millat o'ziga xos madaniyati, milliy ruxiyatiga ega bo'lgani kabi o'zbek xalqining ham milliy xususiyati, характери, tuyg'ulari, o'z-o'zini anglash, quyi va ruhiy qiyofasi alohidaligi bilan boshqa xalqlarnikidan ajralib turadi.

Yirik psixolog olimlardan M.G.Davletshin - oilada ota-onalarning farzandlarga bo'lgan munosabatlarida o'zaro yordam, bir-birini qo'llab-quvvatlash, hamkorlikda ish olib borish, oilada mehnatni taqsimlash, xo'jalik ishlariga ko'maklashish kabi muammolar yechilmas ekan, ular o'rtasida doimiy tushunmovchiliklar, aytishib qolishuv va nizo-janjallar yuzaga kelib turishi mumkinligi to'g'risida gapiradi.

Hayot jarayonida bolada shunday motivlar shakllanadiki, bu motivlar bola uchun asosiy ahamiyatga ega bo'lib, boshqa barcha motivlarni o'ziga bo'ysundiradi. Bolaning hulq-atvori va faoliyati ustidan barqaror hukmronlik qiluvchi motivlar bola shaxsining yo'nalishini barpo etadi.

Respublikada bevosita o'zbek oilalarida ota-ona va farzand, oilada aka-uka, opa-singillarning o'zaro munosabat-lari psixologiyasiga oid dastlabki ilmiy ishlar G'.B.Shoumarov va Ye.A.Morshininalar tomonidan ham amalga oshirilgan. Respublika psixolog olimlari orasida ilk bor o'zbek oilasida bir necha avlodlararo va ikki avlod: ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarning o'ziga xos etnopsixologik xususiyatlari o'rganilgan va ko'p farzandlik oilaning katta yoshli a'zolariga hurmat, oilada erkak mavqeyi kabilar va bularning bola shaxsiga ta'siri yoritib berilgan.

Shuningdek, G'.B.Shoumarovning so'nggi o'n yilliklar davomida chop etilgan ishlarida o'zbek oilasida ota-ona va farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xususiyatlariga alohida e'tibor berilgan.

Shu bilan bir qatorda, psixolog olim M.G.Davletshin va G'.B.Shoumarovlar hozirgi zamon o'zbek oilasining xususiyatlarini o'rganish chog'ida, uning o'ziga xos jihatlaridan biri bo'lmish oiladagi farzand soni, uning ijtimoiy mavqeiga ta'sirini hamda ota-onaning farzandlari ulg'ayib, kamol topib borishi orqali o'zlari yashab turgan ijtimoiy muhitda, mahalla-ko'y orasida obro'si, hurmat-e'tibori ulug'lana borishini ta'kidlaydi.

E.G'.G'oziyev, o'zbek xalqining etnopsixologiyasi va bolalar tarbiyasini o'rganar ekan, uning tarixiy an'analari, urf-odatlar, udumlari, rasm-rusumlari, ahloq me'yori, turmush tarzi, ma'naviy qadriyatlar, shaxslararo munosabatlari, muloqot maromi va boshqa xususiyatlari turli xalqlarnikidan ma'lum darajada tafovutlanishi haqida to'xtalib o'tadi. Shu bilan birga, ota-onaga, tug'ishganlarga nisbatan milliy to'g'ri yo'g'rilgan munosabat, qarindoshlik rishtalari ham milliy ruxiyatni aks ettirishi hamda oila a'zolarining o'zaro samimiy munosabatlari, ayniqsa, atrofida gilar bilan muntazam ravishda salomlashib yurish kabi xususiyatlar, milliy urf-odatlarimizning ibratli va o'ziga xos bir ko'rinishi ekanligini ta'kidlaydi.

V.M.Karimova, ota-onalarga xos xususiyatlar ularning farzandlariga ham xuddi shu sifatlarni shakllanishi imkonini berishligi haqida gapiradi. Masalan: Ota-ona o'z oilasida oilaviy an'analarni muntazam ravishda tashkil qilib borishi bolalar shaxsining shakllanishida, oilaparvarlik sifatlarining rivojlanishida muhim asos

bo'ladi. Mana shu tadbirlarda bola ishtirokining ta'minlanishi esa, unda oila a'zolariga bo'lgan hurmat, hamdardlik va hamfikrlilik kabi sifatlarni, yoshlikdan tashabbuskorlik, mustaqil ish yuritish ko'nikmasini, uning insonlarga nisbatan muomala malakalarini shakllanti-rishga yordam beradi, deb ta'kidlaydi.

O'zbek oilasining etnopsixologik va ijtimoiy psixologik xususiyatlarini ilk bor mustaqil tadqiqot ishi sifatida o'rgangan psixolog olim N.A.Sog'inov o'z ishlarida er-xotin munosabatlarining etnopsixologik xususiyatlarini, o'zbek oilalarida nikohdan keyingi holat xususiyatini o'rganar ekan avlodlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning boshqa millat vakillariga nisbatan mustahkam ekanligini, bu munosabat-lardagi xissiy yaqinlikni farzandlarning oila qurishi, farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga ham ta'siri kuchli ekanligini ko'rsatib o'tgan. Shuningdek, N.A.Sog'inov o'zining qator maqolalari va risolalarida o'zbek oilasida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda hamda oilada bola tarbiyasi va shaxsning shakllanishida ota-onalarning o'zni masalalarining ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlarini yoritib berishga erishgan.

Tadqiqotchi, o'zbek oilasi muammolarini o'rganishga oid uslubiy materiallari, psixodiagnostik vositalar to'plamlari va boshqa nashr qilingan ishlaridan hozirgi vaqtda Respublika amaliyotchi psixologlari tomonidan ota-onalar va farzandlar bilan olib boriladigan psixodiagnostik, psixokorreksion, psixologik maslahat va psixologik oqartuv ishlarini olib borishda keng foydalanilmoqda.

Shu bilan bir qatorda G'.B.Shoumarov tahriri ostidagi N.A.Sog'inov, F.A.Akramova, D.U.Abdullayeva va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan akademik lisey va kasb-hunar kollejlari talabalari uchun mo'ljallangan "Oila psixologiyasi" darsligi alohida e'tiborga loyiqdir. Chunki, u o'zbek oilasining etnopsixologik xususiyatlari, jumladan, o'zbek oilalarida ota-onalar va farzandlarning munosabatlarini hisobga olgan holda psixologik nuqtai-nazardan yozilgan ilk darslikdir.

Undan tashqari, Respublikamizning qator psixologlari tomonidan yozilgan "1001 savolga psixologning 1001 javobi" nomli o'quv qo'llanmasida ham o'zbek oilalarida ota-onalar va farzandlar munosabatlariga alohida o'rin berilgan.

T.M.Adizova o'z ijodiy ishlarida, - o'zbek oilalarida o'smir bolalar shaxsining muloqotga kirishuvchanlik sifatlarini oiladagi o'zaro munosabatlarni o'rganuvchi usullar yordamida aniqlashga muvaffaq bo'lgan. Tadqiqotchi ta'kidlaganidek, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bolaning harakteri shaxsiy psixologik xususiyatlarini tarkib topishida katta rol o'ynaydi. Ya'ni, oilada ota-onalar va bolalarni o'zaro munosabatlari bolaning muloqotchanlik sifatleri shakllanishining asosiy manbai bo'lib hisoblanadi. Oilada ota-onalarning bolalariga ishonch bilan qarashi, uning xatti-harakatlarini qo'llab-quvvatlashi natijasida bolada ochiq-ko'ngillik, muomalaga tez kirishuvchanlik sifatleri, yoki, aksincha, ota-onalarning o'z bolalariga nisbatan demokratik usulida yondoshuvi natijasida muloqotga kirishuvchanlik sifatleri shakllanishiga, yoki, ularga nisbatan "Qattiqqo'llik, talabchanlik" munosabatda bo'lish usuli bo'yicha yondoshuvi natijasida, farzandlaridagi xissiy ta'sirchanlikning ortishiga, ya'ni, bola psixikasining jarohatlanishiga, muomaladagi qat'iyatsizlikka olib kelishi, shu bilan birga, ota-onaning farzandiga nisbatan munosabatning "kichik omadsiz"

usuli bilan yondoshuvi natijasida, bolada muloqotchanlik sifatlarining past darajada rivojlanishiga, xavotirlanishning ortishiga, o'ziga ishonchning yo'qolishiga sabab bo'ladi, deb ta'riflaydi.

R.I.Sunnatovaning ta'kidlashicha,- murakkab vaziyatlarda bola va uning ota-onalari o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yishda amaliyotchi psixologlarning vazifalaridan biri, ota-onaning bolaga yondoshish texnologiyalarini maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirish malakalarini singdirishdan iborat ekanligini ko'rsatadi.

F.A.Akramova o'z izlanishlarida yoshlarning oilaviy hayot to'g'risidagi tasavvurlarining etnopsixologik xususiyatlarini o'rgangan ishlarida o'zbek oilalarida ota-ona obro'si, o'rni va mavqeyi yuqori darajada ekanligini asoslab beardi va o'zbek oilalarida ota-ona va farzandlarning o'zaro munosabatlarida ichki xissiy komponentlarning yuqoriligini o'rgangan.

M.M.Mamatov ta'kidlaganidek, ota-ona hurmatini bajo keltirish, keksalarni e'zozlash kabi odat va an'analar boshqa xalqlar kabi o'zbek oilalarida ham yoshlikdan bolalar ongiga singdirilib boriladi. Ota-on va kattalar tomonidan yoshlarga boshqalar bilan muomala qilish va munosabatga kirishish yo'l-yo'riqlarini o'rgatib, odamiylikdan insonparvalikdan saboq berib boriladi.

Z.T.Nishanova o'zining qator maqolalari va risolalarida o'zbek oilasida ota-onalarni bolalariga bo'lgan o'zaro munosabatlari jarayonida shakllanadigan tarbiya nuqsonlarini aniqlash usullarini ilk bor rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishga va qayta ishlab chiqishga erishgan.

A.M.Jabbarov o'zining ilmiy izlanishlarida, o'zbek oilalaridagi davom etib kelayotgan xushmuomalalik, xush-fe'llik, bilimdonlik, yuksak ahloqiylik, shirinsuxanlik, mehribonlik, rahmdillik, mehnatsevarlik va hokazo kabi sifatlarni milliy (etnik) psixologik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan inson sifatida kamol topishi mumkin degan fikrlarni ilgari surgan.

B.M.Umarovning ta'kidlaganidek,- oila o'z urf-odati, yo'nalishi, etnik va estetik dunyoqarashiga ega bo'lgan mikro ijtimoiy guruh bo'lib, uning moddiy va ma'naviy tomonlari bo'ladiki, bu oilada bola shaxsi kamolatiga, hulq-atvoriga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Garchand sog'lom muhitli, xush oilalarda va o'smirlar hulqi og'ishidagi asosiy omillardan biri oilaviy tarbiyadagi nuqsonlar ekanligidan ko'z yumib bo'lmaydi. Oilaviy munosabatlarda nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi omillar orasida shaxslararo nizolar esa ko'pincha shaxslararo muloqot zamirida vujudga keladi.

M.M.Mamatov va R.Yu.Toshimovlarning yozishicha,-har bir xalq katta yoki kichik bo'lishidan qat'iy nazar, o'z milliy psixologik xususiyatlariga ega bo'ladi. Yashash sharoiti, muhiti, tarixiy taraqqiyot xususiyati, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumiga ko'ra, har bir etnik birlikka (millat, elat, qabila va hokazo) boshqalarda deyarli uchramaydigan o'zining ichki munosabatlar tizimi shakllanadi, bu ichki tizim individ bilan etnos va individlar o'rtasidagi qat'iy belgilangan munosabatlar harakterini ta'minlab turadi. Ming yillar davomida shakllangan va amal qilib kelinayotgan bu an'ananing buzilishi, ko'pchilik tomonidan qoralanadi. Hozirgi kunda o'zbek oilalarida faqat o'tmishdan qolgan milliy psixologik xususiyatlarga mavjud bo'lib qolmasdan, balki davr ruxi bilan bog'liq bo'lgan va qardosh qo'shni

xalqlardan o'zlashtirilgan yaxshi urf-odatlar va an'analar, udum va marosimlar ham kirib kelayapti. Bu bizning milliy psixologik xususiyatlarimizni yanada yangi mazmun bilan boyib borishiga xizmat qiladi.

M.Sh.Rasulovning ta'kidlaganidek, bolalarni oilada tarbiyalash masalalari murakkab va ko'p qirralidir. Ota-onalarning chuqur bilimi, ziyrak va oqila bo'lishi talab qilinadi, zero har bir bola uchun o'ziga yarasha tarbiya usullarini topish lozim bo'ladi. Oilaviy ta'sir, ya'ni oiladagi turmush tarzi ota-ona nufuzi, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar, oila muhiti, ma'naviyatga intilish, qiziqish va boshqalarda o'z-o'zini anglash namoyon bo'ladi (118).

O'smirlik davrida shaxs xususiyatlari va ularning rivojlanishi jarayonini shakllanishlari to'g'risida O'zbekiston psixolog olimlaridan M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, V.A.Tokareva, B.R.Qodirov, G'.B.Shoumarov va M.Qoplonova va boshqa psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar e'tiborga molikdir.

Shuningdek, B.M.Umarov, G.K.Tulaganova va boshqa psixolog olimlar o'smirlardagi hulqi og'ish va pedagogik qarovsizlikning o'zaro aloqadorligi masalalarini tadqiqot etganlar.

B.R.Qodirov o'z izlanishlaridan birida oila va iste'dodli bolalar, ulardagi muammolar va yechimlarni o'rganish borasida bolalardagi ichki imkoniyatlar oilaviy muhit ta'siri ostida shakllanib borishi hamda ota-onalarning ana shu shakllana-yotgan layoqatlarga sharoit yaratishlari orqali, ularni yanada rivojlantirishlari mumkinligini ta'kidlaydi. Olim o'z tadqiqotlarida, bolaning har qanday qiziqish va intilishlari-riga oila a'zolarining sezgirliги, avvalambor, ota-onaning ahamiyat berishi, undagi pinhoniylayohatni qobiliyatga aylan-tirish xususiyatini yuzaga keltiradi. Demak, oilada aqliy zakovati mukammal rivojlangan iste'dodli bolalarni yuzaga keltirishda, ota-onalarning sezgirliги va ularning ta'sirchan munosabatlari muhimdir, degan fikrni ilgari suradi.

E.A.Quljanov o'z ilmiy izlanishlarida tarbiya-koloniya-larida tarbiyalanayotgan o'smirlik yoshidagi mahkum o'smir-larning o'z-o'zini baholash darajasini aniqlagan hamda ota-onalarning bu yoshdagilarga bo'lgan munosabatlari, bu tipdagi o'smirlarning takror ijtimoiylashuvga moyilliklarining namoyon bo'lish jarayonini va ularning hulq-atvorini tuzatish usullarining ta'sirini o'rganishni tadqiq qilgan.

N.G.Komilova o'z izlanishlarida deviant-hulq-atvorli o'smirlarda o'zini-o'zi baholash xususiyatlarini tadqiq qilgan va ilmiy tadqiqot ishida o'smirlarning o'zini-o'zi baholash-ning xususiyatlarini va tizimini ham nazariy, ham metodologik jihatdan yoritib bergan. O'zini-o'zi baholash, shaxsning o'zini anglash refleksiv jarayonlarning shakllanishini hamda o'zini anglash, borliqqa emosional-differensial munosabatda bo'lishini va shaxsning ma'naviy yetukligini tadqiq qilgan.

F.S.Tatibayeva o'z izlanishlarida yuqori sinf o'quvchi shaxsining milliy psixologik xususiyatlarini tuzishda ijtimoiy taraqqiyot turining ta'sirini tadqiq etgan. Ilmiy ishida, asosan shaxsdagi milliy ongning tarkibiy qismlari, qadriyatlar, qarashlari nazariy tomondan taxlil qilingan, shuningdek, shaxsning milliy ruxshunoslik xususiyatini tuzishda ijtimoiy taraqqiyot jarayonidagi fazilatlar, bosqichlar va institutlar ta'sirini tadqiq etgan.

G.A.Bogdalova o'z ilmiy izlanishida, o'smirlar shaxsining emosional xususiyatlarini o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlari qilgan. Tadqiqotchi, o'z izlanishlarida, o'smirlarning shaxsida emosional xususiyatlarini ijobiy yoki salbiy shakllanishiga nima sabab bo'liini tadqiq qilgan.

E.I.Ganeyeva o'z iz ilmiy izlanishida, ta'lim-tarbiya jarayonida o'smirlarda individual muomala uslubini shakllanishini o'rganish bo'yicha tadqiq qilgan. Tadqiqotchi tadqiqot jarayonida o'smirlarning integral individualligi strukturasi o'ziga xosligini belgilaydi, ya'ni turli iyerarxik bosqichlarining xossalari aloqadorligini determinasiya qilishda vositachi bo'g'in sifatida namoyon bo'lishini aniqlaydi.

M.T.Isakova o'z ilmiy izlanishida, milliy an'ana va ijtimoiy omillar ta'sirida ilk o'spirinlarda ma'naviy tasavvurlarni shakllantirish mavzusi bo'yicha tadqiqot ishlari olib borgan. Muazzam Tulkunovna o'spirinlardagi ma'naviy tasavvurlarga ta'sir etuvchi va ularni o'zgartiruvchi omillarni, ma'naviy tasavvurlarning rivojlanish dinamikasini aniqladi va tadqiq qildi.

M.S.Salayeva o'zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borgan. O'zbek oilalarida bolalarning shaxslararo munosabatlari va ularning oilaviy ichki muhitga munosabati hamda ota-onalarning ota-onalik rolga nisbatan ustanovka va munosabatlarining ijtimoiy-psixologik, xududiy, jinsiy xususiyatlarini tavsiflovchi holatlarini tadqiqot qilishga erishgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'zbek pedagog va psixologlari tomonidan oila va oilada bola shaxsining milliy shakllanishini o'rganish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar mavjud bo'lib, biz o'rganmoqchi bo'lgan ko'plab qimmatli psixologik-pedagogik izlanishlardan foydalanish mumkin. Mavzu ma'lum ma'noda yuqoridagi o'tkazilgan tadqiqotlarning mazmunini boyitadi.

1.3 . Shaxs etnopsixologik xususiyatlari va stereotiplarining shakllanishini o'rganish bo'yicha olib borilgan izlanishlar

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida O'zbekiston xududida yashaydigan etnik ozchilikning huquqlarini himoya qilish to'g'risida ham alohida ko'rsatib o'tilgan. Unda yozilganidek, "O'zbekiston Respublikasi o'z xududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'alarini hurmat qilishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi".

O'zbek xalqining o'z ruhiy qiyofasi, milliy xususiyati, milliy harakteri, milliy tuyg'usi, mijozi, hulq-atvori, didi, ta'bi alohida ajralib turadi. O'zbek xalqining tarixiy an'analari, urf-odatlari, udumi, rasm-rusumlari, ahloq me'yori, turmush tarzi, ma'naviy qadriyatlari, shaxslararo munosabatlari, muloqot va shaxs xususiyatlari boshqa xalqlarnikidan ma'lum darajada tafovutlanadi. Oilaviy ta'sir, milliy til muhiti, ma'naviyatga intilish, turmushdagi qarindosh-urug'chilik rishtasi yordamida o'z-o'zini anglash namoyon bo'ladi. Milliy o'z-o'zini anglashning qator obyektiv va subyektiv omillari mavjud.

Milliy psixologiya har bir millat vakilining milliy his-tuyg'ular, xatti-harakatlari, ruhiy kechinmalari, psixik temperamentlari va fe'l-atvorlarini namoyon etadi.

Ma'lumki, milliy tuyg'u, bu tabiiy tuyg'udir. Ayni paytda milliy tuyg'u ma'naviy hayotning juda ham nozik elementidir. Milliy tuyg'ular esa, milliy iftixor, milliy harakter, ya'ni, milliy psixologiyaaning belgilaridan biri, uning ajralmas qismidir.

Har bir tadqiqotchi etnosning vakili–inson qiyofasini ifodalashda faqat nashr etilgan manbalardagi ma'lumotlardan va o'zining bevosita kuzatishlaridan foydalanib qolmaydi, balki aslida amaliy vazifalarni ham o'rganadi. Masalan, O'zbekistonda yashaydigan qozoqlar, Qozoqistonda yashaydigan millatdoshlaridan ayrim xususiyatlari bilan farqlanadilar. Avvalo bu farqlar O'zbekistonda qozoqlarning hiyla o'troq turmush tarziga ega ekanliklari bilan bog'liqligi bilan ifodalanadi. Shunday bo'lsada, O'zbekistonda istiqomat qiladigan qozoqlar o'z millatlariga xos bo'lgan bag'ri kenglik, ochiqko'ngillilik, to'g'ri so'zlilik, oqko'ngillilik, mehmondo'st-lik, erkinlikka intilishlik, muomala va faoliyatda ustunlikka intilish kabi xususiyatlarini saqlab qolganlar. Tojik xalqining psixologiyasida ham o'ziga xos, diqqatga sazovar xususiyatlari mavjud. Masalan, tojik millati vakillari bilan bo'lgan muloqotda serg'ayratlik, to'g'rilik, yutuqqa intilishlik, bog'lanuvchanlik, qanoatlilik, hissiy barqarorlik, kek saqlamaslik, kabi hislatlar ko'zga tez tashlanadi. O'zbekistonda yashaydigan tojiklarda ham xuddi shu xususiyatlar yaqqol ifodalanadi.

Darhaqiqat, 70–yillar boshida ijtimoiy psixologiya taraqqiyotiga katta hissa qo'shadigan ishlar amalga oshirilgan. Ularda shaxs psixologiyasini insonshunoslikning boshqa sohalariga bog'lash uchun jiddiy urinishlar o'z

ifodasini topdi. Shu bilan birga O'zbekistonda ijtimoiy psixologiyadan tashqari falsafa, tarix va etnografiya bo'yicha ham qator tadqiqotlar o'tkazildi.

Psixologik nuqtai-nazardan stereotilashish qandaydir ijtimoiy guruh yoki etnik birlikning barcha a'zolariga moslashuvi jarayonidir. Demak, etnik stereotiplari yuksak hissiyoti va barqarorligi bilan farqlanadigan turli etnik guruhlarining vakillari to'g'risidagi umumiy xulosalardir. Stereotiplar tarkib topishining sababi, guruhning qadriyatlarini himoya qilishga intilish bilan birga juda ko'p axborotlarni "o'zlashtirish" uchun kundalik fikrlashda "kuchlarini tejash" prinsipidan foydalanish zarurligidir. Milliy psixologiya-elementi bo'lmish, etnik stereotiplar kundalik hamda nazariy ong darajasida shakllanadi va emosional, rasional, irodaviy elementlar majmuidan iborat bo'ladi. Etnik stereotiplarni psixologik tahlil qilish uchun ularning ichki tuzilmalarini bilish muhim ahamiyatga molikdir.

Stereotipni 4 ta xususiyati (L.Edvars) bo'yicha "o'lchash" mumkin.

1. Stereotipning mazmuni, ya'ni qandaydir etnik guruhga mansub xususiyatlar to'plami;
2. Bir xillik u yoki bu xususiyatlarni etnik guruhga mansub-lashtirishdagi tekshiruvchilarning moslik darajasi;
3. Yo'nalish stereotiplashish obyektni umumiy, ijobiy yoki salbiy idrok etish;
4. Intensivlik-stereotiplashadigan guruhga nisbatan xato tushunchaning stereotipida ko'ringan darajasi.

Hulqning stereotiplashgan shakllari anchadan beri turli xil fan namoyondalarining diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Chet el psixologi E.M. Fromm, jamiyat ichidagi birliklar va sinflar o'zining alohida ijtimoiy harakterga ega ekanligini va shu asosda rivojlanishini hamda muayyan g'oyaviy kuchga ega bo'lishini ta'kidlaydi. Agar ijtimoiy harakterga uning ijtimoiy jarayondagi vazifalari nuqtai-nazaridan qaralsa, biz avvalo inson ijtimoiy sharoitlarga moslashib, o'zida lozim bo'lgan yo'sinda harakat qilishga majbur etadigan xislatlarni rivojlantirishini tasdiqlashimiz lozim.

A.K.Bayburin-ijtimoiy va etnik stereotiplarni ikki qiyofali odamga taqqoslab, shunday deb yozadi:

a) ular mazkur ijtimoiy birlikning individualligini boshqa ijtimoiy makondan, boshqa madaniyatdan izlashsa, uning aks ettiradigani mazkur sosium, (birlik) mazkur ijtimoiy guruh muammosini hal qilishning individual reflekslan-maydigan (ikki ijtimoiy guruh uchun boshqa-boshqa) usullari bo'lishi mumkin;

b) ana shu stereotiplar mazkur guruhdagi shaxs, uning etnik o'ziga xos xislatlari sifatida boshqa madaniyatiga duch kelganda uni biladigan shaxsning ijtimoiy, tipik harakteristikasi sifatida ham namoyon bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi.

A.G.Asmolov o'z ta'rifida, - U.Lipmanning fikriga qo'shilib, A.P.Trusov va A.S.Filippov etnik stereotiplarni ikki jihatdan, ya'ni gnoseologik (ularning bilish jarayonidagi roli) va sosiologik (ularning ijtimoiy vazifalari) jihatlardan turib tadqiq qilishni tavsiya etadi. Ana shu fikr bizni bundan keyin ushbu bo'lim materiallarini bayon qilishda ham to'la qanoatlantiradi va biz ham ana shu yo'ldan boramiz",-deb ta'kidlaydi (30).

U.Lipman o'z tadqiqotlaridan birida stereotiplashish zarurligining ikkita eng muhim sababini ko'rsatadi.

Birinchisi–stereotiplashish tufayli kishilarning kuch sarflashi tejaladi, ular yangi faktlar va hodisalar to'g'risida qaytadan o'ylab, fikrlab o'tirmaydilar; shunday faktlar va hodisalarni to'g'ridan–to'g'ri mavjud kategoriyalarga kiritadilar. “Agar atrofdagi olamda bir xillik bo'lmasa, yoki kuchlarni tejashning hych qanday yo'li bo'lmasa, faqat xatolar mavjud bo'lar edi, lekin ana shunday bir xillik mavjud bo'lgani uchun diqqat–e'tiborni tejash shunchalar zarurki, agar sof tajriba asosida fikr yuritish uchun barcha stereotiplardan voz kechilsa, insoniyatning tirikchiligiga muqarrar ravishda zarar yetar edi”.

Ikkinchi–sabab guruhiiy boyliklarni (milliy madaniy boy-liklar va shaxsning ma'naviy boyligi) muhofaza qilish, ya'ni sof ijtimoiy vazifadir. “Stereotiplar” an'analarimizni qo'riqlaydi, ular qancha ko'p bo'lsa, biz unda o'zimiz egallagan mavqeyning xavfsizligini shunchalik ko'pligini xis etishimiz mumkin, deb ta'riflaydi.

Ma'lumki, “stereotip” iborasining ilmiy muomalaga 1922 yilda U.Lipman kiritgan. Ammo stereotiplar tadqiqot obyekti bo'lgunicha oradan ma'lum vaqtlar o'tgan. Dastlabki, “antistereotip” (inson qiyofasi) muammosini empirik tadqiq qilishga ko'p e'tibor berildi. Shundan keyingina etnik stereotiplarni keng miqyosda tadqiq etish bosqichi boshlandi. Hamma kishilar u yoki bu darajada ijtimoiy va etnik stereotiplarning ifodalovchisidir. Bizning boshqa xalqlar to'g'risi-dagi bilim va tasavvurlarimizning bir qismi ana shu stereotiplar yordamida shakllangan.

M. Mukanovning yozishicha, etnosning o'ziga xosligi shundan iboratki, uning vakillari mazkur etnosiga xos assosiativ aloqada bo'ladilar. Etnos tomonidan qabul qilingan me'yorlar konvensionlardir (to'la tan olingandir).

Etnosdagi me'yoriy jarayonlar konvensiyalar (kelishuviga rioya qilish) va uning mavjudligi sababli barqaror tus olgan (stereotiplashgan) jarayonlardir. Mazkur fikrlar ko'plab ilmiy ishlarda isbotlangan A.M.Jabbarov ta'kidlaganidek: - 1) Ijtimoiy–madaniy muhit vujudga kelishining manbalari etnosning birligi, tili, zamon va makonda tashkil topishi, xalqning turmush tarzi, boyluklari, qadriyatlar, ijtimoiy hamda madaniy mavjudligi va hokazolardan iboratdir;

2). Xalqning o'ziga xos fe'l–atvori va psixologiyasining etnik stereotiplarini tadqiq qilish, ularni vujudga keltirgan ijtimoiy–madaniy tizimni o'rganish asnosida amalga oshirilishi kerak. Bunda xalqning o'ziga xosligini tiklash avloddan–avlodga o'tib kelayotgan stereotiplarning noaniq nusxasi ekanini hisobga olish kerak.

O'zbek xalqining etnik stereotiplari, o'ziga xosligi, uning an'analari, marosimlari, urf-odatlar va didi, matallarda va hikmatli so'zlarida chuqur o'rin olgan. Xalqning avaylab saqlashi va ardoqlashi sababli, ular hozirgacha o'zining dastlabki ma'nosini yo'qotmagan va millatimiz vakilining kundalik hayotidagi eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

M.M.Qoplonovanning yozishicha, - o'zbek xalqining qiyofasi xo'jalik faoliyati va turmush tarzi xususiyatlari dastavval mahalliy, tabiiy–geografik va xo'jalik madaniy tiplarini yaratgan mintaqalar hisoblanadi. Unda yashovchi xalqlarning kelib chiqishi va tarixiy taqdiri ham umumiy harakterga ega. Milliy ruxiyat, ijtimoiy ong, oilaviy va ma'naviy hayotning hozirgi davr talabiga javob bera oladigan

darajada rivojlanishi, shubhasiz xalqning erkinligi, uning davlat tuzilishi bilan bevosita bog'liq.

Tadqiqotchi, o'zbeklarning milliy harakter xususiyatlariga quyidagi-larni misol qilib keltirgan:

1. Yo'nalganlik xususiyatlari: - ehtiyojlari, ideallari, ustanovkalari, qiziqishlari, maqsadlari;

2. Aqliy xususiyatlari: - ma'rifatparvarlik, uquvlilik, fahmlilik, farosatlilik, mug'ombirlik, e'tiborlilik, ziyraklik, mohirlik, xushyorlik;

3. Irodaviy xususiyatlar: - ahloqiylik, odoblilik, botirlik, mag'rurlik, sabr-toqatlilik, qat'iylilik, tobelik;

4. Emosional xususiyatlari: - bosiqlik, mulohazalilik, ehtirolilik, mehribonlik, ishonuvchanlik, qiziqqonlik, teeobililik, zavqlilik, nafosatlilik va yumshoq fe'lliliklar kiradi, - deb hisoblaydi.

M. Mamatovning ta'kidlashicha, milliy psixologik qiyofaning ayrim belgilari kishilar birligining hamma tarixiy davrlariga, ya'ni, urug', qabila va elatlarga ham xosdir. Ma'lumki, bola o'ziga Vatanni yoki ota-onani tanlab tug'ilmaydi. Shunday ekan, u o'z millatiga mansub bo'lgan tayyor xususiyatlar bilan ham tug'ilmaydi. Bola o'z ota-onasidan va avlod-ajdodlaridan biologik yo'li bilan irqiy xususiyatlarni va ayrim ruhiy temperament xususiyatlarinigina meros qilib oladi, xolos. Bola milliy muhitda yashab turgandagina, shu millat va elatga xos bo'lgan xususiyatlarni egallab, ayni millat vakili bo'la oladi.

O'zbek oilasining o'ziga xos xususiyati: ko'p avlodlilik, ko'p farzandlilik kabilar bunday oilalar a'zolari o'rtasida o'zaro muloqotni to'laroq amalga oshirishga asos bo'ladi, ularning o'zaro muloqotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq so'nggi yillarda ba'zi oilalarda ota-onalar va bolalar o'rtasida muloqotning kamligi, bir-biriga e'tiborining pasayishi, oila a'zolari o'rtasida fikr erkinligining cheklanganligi (ayniqsa, qishloq oilalarida) holatlari ham mavjud.

Bir narsani tan olish kerakki, o'zbek milliy tarbiyasi doirasida tortinchoqlilik fazilat sifatida baholanadi. Buni chet elliklar esa ruhiy kasalga chalinish deb hisoblaydilar.

Hozirgi kunda bolalar tarbiyasida, o'zbek xalqining boy etnopsixologiyasidan samarali foydalansa va unga amal qilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Milliy (etnik) muhitda qo'ni-qo'shnilar va ayniqsa qarindosh-urug'lar o'rtasidagi o'zaro hurmat hamda o'zaro yordam qadimiy an'analarning biridir. Qator ishlarda o'zbeklar milliy psixologiyasining tarkibiy xususiyatlari ifodalangan.

II BOB. OILAVIY QADRIYATLAR VA UNING ETNOPSIXOLOGIK IMKONIYATLARI.

2.1. O'zbek xalqiga xos harakterli xususiyatlar va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar

Etnopsixologik xususiyatlarning o'ziga xos tomonlarini mujassamlashtiruvchi va uni namoyon etuvchi shu etnik birlik vakillaridir. qanday qilib etnik birlikka xos xususiyatlar ularda shakllanadi? Ma'lumki, bola o'ziga Vatanni yoki ota-onani tanlab tug'ilmaydi. Shunday ekan u o'z millatiga xos bo'lgan tayyor ruhiy xususiyatlar bilan ham tug'ilmaydi. Bola ota-onasidan avlod-ajdodidan biologik yo'l bilan faqat irqiy xususiyatlarni va ayrim ruhiy xususiyatlarnigina me'ros qilib oladi, xolos. Bola tug'ilish davrida odam bo'lishga nomzod. Lekin yakka ajralgan xolda u odam bo'la olmaydi. Jamiyatda yashab u odam bo'ladi.

Bola xayotining birinchi kunidan boshlaboq ixtiyorsiz holda o'zi dunyoga kelgan muhitdagi turli-tuman ta'sirlar va taassurotlar ostida shakllana boshlaydi. Bolaning biologik va ruhiy jixatdan rivojlanishi uchun ta'sir etayotgan bu informasiyalar, turli sosial muhit va geografik sharoitlarda bir xil bo'lmaydi. Mana shu turli xil muhit va informasiyalarining turfa xilligi bir-biriga o'xshamaydigan xalqlarni yaratadi.

Garchi har bir inson ma'lum darajada mustaqil yashash va faollik ko'rsatishiga ega bo'lsa ham, lekin hayotda u faqat o'z xohishi va tushunchasi bilan yashab qolmay, shuning bilan birgalikda o'zi yashab turgan sosial muhit va o'zi mansub bo'lgan xalqning tajriba, bilim va e'tiqodlarini ham o'zlashtirib boradi. Chunki odam o'zi yashab turgan sosial muhitdan butunlay chiqib ketib yashay olmaydi.

Bola faqat milliy muhitda yashab turgandagina shu millat va elatga xos bo'lgan xususiyatlarni egallab, ayni millat vakili bo'la oladi. Bolaning ontogenetik taraqqiyoti davrida tashqi xatti-harakatlarni botiniy ya'ni, "aqliy" xususiyatlarga aylanishi davrida unda milliy psixologik qiyofa asoslari shakllana boshlaydi.

Individning ijtimoiylashishi, milliylashishi ona tilini o'zlashtirish bilan boshlanadi.

Milliy tilni bilmaslik, etnik muhitdagi jarayonlarni, tilda ifodalanayotgan holat va hodisalarning mohiyatlarini anglab olishga to'sqinlik qiladi. Chunki fikr ifodasi uchun ishlatiladigan suzlarda milliy o'ziga xoslik bo'ladi. Tafakkur bilan til va nutq o'zaro bog'liq bo'lganligi uchun, ruscha tili chiqqan bolalarning fikrlash malakasi ham ruscha bo'lib o'zbeklarnikidan farqlanadi. Chunki insonning tafakkur tarzi nutqida, tilda reallashadi, moddiylashadi.

Ular o'zbekcha gaplashishga o'rganganlaridan keyin ham, ruscha fikrlab, o'zbekcha gapirishga harakat qiladi. Ruscha tafakkur tarzi bilan o'zbekcha gapirish juda kiyin.

Boshqa millat vakili vokelikni o'zbekning kuzi bilan kurib o'zbekona tafakkur tarzi bilan idrok eta olgandagina, u chinakamiga o'zbekcha fikr yuritib, o'zbekcha gapira boshlaydi.

Yukorida aytib o'tkanimizdek, ko'rgan narsalarni idrok etish va mazmunini tushunib yetish miyaning to'g'ra xususiyati bo'lmay, bu xususiyatni u turmush tajribasi asosida xosil qiladi. Shuning uchun ham turli tabiiy sharoitlarda va sosial muhitda yashab voyaga yetgan kishilar, turli xodisa va voqyealarni idrok etishda o'ziga xos sosial-psixologik xususiyatlarga ega bo'lishadi. Olib borilgan tekshirishlar shuni ko'rsatadiki Afrika kit'asidagi ijtimoiy tarakkiyotda qolib ketgan ba'zi qabila bolalari tajriba bilan bog'liq bo'lgan, amaliy ahamiyatga ega bo'lgan narsalarni, xodisalarni esda olib qolishda ajoyib xotira namunalarini ko'rsatishgan. Ular ov qilinadigan so'qmoqlarni topish, yovvoyi xayvonlar izini farqlash, o'rmon ichida oriyeirovka qila olishlik kabi vazifalarni bajarishda yevropalik tengdoshlariga qaraganda bir muncha ustunlik qilgan holda, geometrik shakllarni deyarli farqlay olmag'anlar.

Inson sosial zot sifatida ma'lum milliy muhitda shakllanib borar ekan, shu sosial muhitda mavjud bo'lgan munosabatlarni, milliy xususiyatlarni o'z-o'zidan stixiyali ravishda o'zlashtirmasdan, balki shu jamiyatda qabul qilingan ma'lum ta'lim-tarbiya tizimi orqali, sekin-asta o'zlashtirib boradi.

Har bir avlod vakillari ajdodlarning turmush tajribalarini, til va madaniy xususiyatlarini o'zlashtirib, millat uchun umumiy bo'lgan shart-sharoitlar ostida o'sib, tarbiyalanib borishi natijasida ularning barchasida shu millatga xos bo'lgan umumiy psixologik xislatlar shakllanadi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, ijtimoiy informasialarni yosh avlod tomonidan o'zlashtirib borilishi, faqat ong'li ravishda, ta'lim-tarbiya berish jarayonidagina bo'lib qolmasdan, shuningdek, individning o'zi bilmagan va o'zlashtirish jarayonini anglab yetmagan holda ham yuz beradi. Bu taqlid va ta'sirlanish orqali amalga oshadi. Individning taraqqiyoti, - u bevosita yoki bivosita munosabatga kirishgan boshqa individlarning taraqqiyoti bilan belgilangan bo'ladi va bir-biri bilan munosabatga kirishadigan turli avlod vakillari o'zaro bog'langan, keyingi avlodlarning jismoniy mavjudligi esa o'tmishdoshlari tomonidan belgilangan bo'ladi.

Ilg'or fan nomoyondalari insoniyat bu sosial hodisa ekanligini allaqachon isbotlab berishgan. Shu jumladan konkret bir kishi ham avvalo sosial munosabatlar mevasidir. Shuning uchun ham hatti-harakatlari mohiyatini biologik yoki irqiy xususiyatlar bilan emas, balki sosial qonunlar bilan belgilash kerak.

Inson ruxiyoti faqat uni o'rab turgan tashqi muhit sharoitlariga moslashib va uning xususiyatlarini aks ettirib qolmasdan, shuningdek, doimiy taraqqiy etib turish harakteriga ega bo'lgan iqtisodiy - ijtimoiy hodisalarning o'zgarib turishiga ham moslashib turadi.

Sosial - iqtisodiy uk'ladning yashash sharoitlarining o'zgarishi bilan va yangi amaliy faoliyat shakllarining vujudga kelishi bilan insonning bilish bilan bog'liq bo'lgan ruhiy jarayonlarida ham o'zgarish yuz beradi. Bunda ruhiy jarayonlarda kayta qurilish sodir bo'lib, avval mavjud bo'lmagan yangi ruhiy faoliyat turlari vujudga keladi. Mexnat jarayonida odam tashqi tabiatni o'zgartirib borib, - shuning bilan bir davrda o'z tabiatini ham o'zgartiradi.

Ko'p ming yillik tariximiz mobaynida umummilliy komillik va butunlikka bo'lgan intilishlar ilk daf'a mustaqillik tufayli xalqimizga nasib etdi. Prezidentimiz

I. A. Karimov tomonidan xalqimizning ma'naviy komilligi, millat butunligini tarkib toptirish va rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi va amalga oshirila boshlandi. O'zgarayotgan zamon va yangilangan makon mantigi xalq harakterida ilgari yetarli rivoj topmagan yangi fazilatlarni tarkib toptirish zaruratini kun tartibiga qo'yayotganligi bois, yurtboshimiz, xalqimizni ma'naviy uygonish, xushyorlik, atrofga keng nazar tashlash, kiyoslab harakat kilishga da'vat etib kelmokda. Hamma narsani inkor etaverishdan iborat nigilizmdan voz kechish, tushunib-tushunmasdan, ko'krakdan itarishdan iborat illatlarimizni tashlash, avval yuzimizni o'girib kelgan ba'zi qadriyatlarga boshqadan xolis baxo berish masalasi o'rta ko'yilmokda.

Xullas, buyuk kelajak taqdiri, ozod va obod jamiyat qurilishi o'zimizning qo'limizda ekanligi, bu maqsad barchamizning ma'naviy o'lchovimiz, shaxsiy va ijtimoiy mo'ljalimizga aylanishi bugungi kun taqozasidir. Darhaqiqat, **Prezident Islom Karimov o'zining Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 14 sessiyasidagi ma'ruzasida aloxida qayd etganlaridek «mamlakatimizning tarixiy va milliy xususiyatlarini, xalqimiz tabiatini, madaniyatini inobatga oluvchi rivojlanishning mazkur nuri biz uchun nihoyatda maqbuldir»¹.**

Etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishda, ayrim terminologik chalkashliklar ham mavjud. Etnopsixologiyaga oid adabiyotlarda ayrim mualliflar tomonidan etnik psixologiya bilan milliy psixologik qiyofani aynan bir ijtimoiy xodisadek, talkin kilinadi. Masalani bu xilda tushuntirish va talkin etish noto'g'ri.

Etnik psixologiya nisbatan keng tushuncha bo'lib milliy psixologik qiyofaga qaraganda voqyealikdagi ko'prok xodisalarni o'z ichiga kamrok olgan bo'ladi. U etnik xususiyatlarni millat vakillari ongida aks etishi sifatidagina namoyon bo'lib

¹ И.А.Каримов Ўзбекистан XXI асрга интиломда. Т.: -Ўзбекистан 1999. 14-бет.

qolmasdan, shuningdek, dunyoni bilish quroli va shakli bo'lib ham namoyon bo'ladi.

Etnik psixologiyada xalqning yashash sharoitlaridan kelib chikadigan ijtimoiy va maishiy odatlar, milliy harakter, an'analar, milliy tuyg'ular, milliy - tab - did, milliy ong va milliy o'zini anglash kabi xususiyatlar aks etadi.

Milliy psixologik qiyofa etnik psixologiyani asosiy komponentlaridan xisoblanib, milliy ong bilan birgalikda etnopsixologiyani tashkil qiladi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, yaqinroq, "Milliy psixologik qiyofa" va "Milliy harakter" terminlarini sinonim so'zlar sifatida ishlatib kelindi. Ma'lum darajada ular mazmun jihatidan va ruxiyatning asosiy xususiyatlariga taalluqligi bilan bir-biriga yaqin kelsa ham, lekin ular ayni bir tushuncha emas. Shunga qaramasdan bizdagi ayrim mualliflar (Sh.Botirov, N.Jondildin, K.Lomidze) chet eldagi deyarli barcha mualliflar "Milliy harakter" ni millatning butun psixologik xususiyatlarini ifodalash uchun qo'llashadi.

"Milliy psixologik qiyofa", "Milliy harakter"² ga qaraganda keng tushuncha bo'lib, "Milliy harakter" uning tarkibiy qismiga kiradi. "Harakter" maxsus termin jihatidan, ko'pincha, barqaror ruhiy xususiyatlar majmuasi sifatida tushuniladigan "Milliy psixologik qiyofa" ga qaraganda torroqdir. Bundan tashqari milliy harakter etnik psixologiyani milliy psixologik qiyofaga qaraganda ancha harakatchan, o'zgaruvchan elementidir. Milliy harakter asosan etnik birlikning millat sifatida shakllangan davrida vujudga kelgan bo'lsa, milliy psixologik qiyofa etnik birlikning barcha tarixiy bosqichlariga ham taalluqlidir.

Tadqiqotchilar tomonidan milliy psixologik qiyofaning nafaqat tabiati va mohiyati tahlil qilinib, sharqlanib qolmasdan shuningdek, uning tuzilmasi (strukturasi) ham o'rganilib, bu xaqda turlicha qarashlar mavjud.

Milliy psixologik qiyofaning ichki tizimi va tuzilmasi masalasi A.I.Goryacheva, S.M.Arutyunyan, A.Bagramov, S.M.Junusov, B.D.Parigin, F.N.Filatov va boshqa tadqiqotchilar asarlarida, ilmiy ishlarida atroflicha yoritilgan. Bu mualliflar milliy psixologik qiyofaning ijtimoiy hayotning real voqeealigi, millatning belgilaridan biri ekanligini tan olishda hamfikr bo'lsalar ham lekin uning strukturasi belgilashda turli-tuman qarashlarga egalar.

A.I.Goryacheva fikricha milliy psixologik qiyofa tizimiga milliy harakter, udumlar, odatlar, did, an'analar kiradi.

Milliy psixologik qiyofa tizimining N.Sarsenbayev o'ziga xos ravishda talqin qilib beradi. Uning fikricha milliy psixologik qiyofada o'zaro bog'langan va bir-birini taqozo etuvchi uchta tarkibiy qism mavjud. Bu tarkibiy qismga milliy harakter, milliy tuyg'u, milliy urf-odatlar va an'analar kiradi.

Bizning fikrimizcha, milliy psixologik qiyofa, avvalo milliy harakter, milliy urf-odat va an'analar, milliy tuyg'ular va ancha barqaror bo'lgan milliy did (tab) va udumlar kabi elementlarda to'la namoyon bo'ladi va milliy ong bilan birgalikda etnik psixologiyani betakror va o'ziga xos xususiyatlarini tashkil etadi.

Har bir viloyat xalqlarining mehnatsevarligi turli ko'rinishda kechadi. Masalan, Buxoroliklar ham, Kashkadaryo va Surxondaryoliklar ham, hammasi

² Э.Ф.Ғозиев. Этнопсихология. Т.Университет. 2003 йил.

mexnatlash xalq. Lekin ularning shu mexnatsevarligi faoliyatning turli sohalarida turlicha namoyon bo'ladi. Buxoroda asosan dexkonchilik, bog'dorchilik bilan shug'ullanish jarayonida namoyon bo'lsa, Surxondaryoliklarda asosan chorvachilik bilan bog'liq bo'lgan mexnatda ko'rinadi.

Bir necha asrlar mobaynida buxoro xalqi dexkonchilik bilan mashg'ul bo'lib kelgan. Shu boisdan ularda mahsulot ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lgan - yerga nisbatan extiyotkor, tejamkorlik bilan munosabatda bo'lish xususiyatlari vujudga kelgan. Bizning ajdodlarimiz og'ir sharoitlarda qiyinchilik bilan paxta yetishtirib kelishgan. Asosiy mexnat qo'l kuchi bilan bo'lgan o'sha davrlarda, bu nozik va yilning 8-9 oyi mobaynida doimiy mashaqqatli mexnat qilishni talab qiladigan o'simlik, dexkonlardan va uning oila a'zolaridan ozmuncha ter to'kishini talab qilgan deysizmi? Bundan tashqari hali tabiatning qudratli kuchlari oldida o'jiz bo'lgan, yakka xo'jalik bilan ish olib boruvchi dexkon, tabiatning turli-tuman injiqliklariga qarshi kurashishga majbur bo'lgan. Paxtakor va bog'bon dexkonni ko'pincha baxorgi suv toshqinlari yoki suvsizlik va qurg'okchilik azoblari qiynagan. Bobo dexkon og'ir, mashaqqatli mexnat qilib, peshona terisi bilan o'z yerini sug'orib, xosil olishga, bog'-rog'lar yaratishga o'rgangan. Suv paygambar, yer avliyo bo'lgan o'sha davrlarda dexkon saratonning jazirama issig'i-yu, kuzning sovuq izg'irinlarini pisand qilmay, har bir qarich yerni zo'r mexr qo'yib ishlagan. Har bir g'o'za tupini e'zozlab parvarish qilgan, har bir daraxtni ko'z korachig'iday saqlagan. Mana shularning hammasi avloddan-avlodga o'tib, ularda mashaqqatli mexnat qilish odatiy narsaga aylanib, zaxmatkashlik, og'ir sharoitlarda ham ruxi tushmasdan ishlay olishlik, dov-daraxtlarni sevishlik, ob-xayot manbai - suvni e'zozlash kabi xususiyatlar biz Buxoroliklarga xos harakter xislati bo'lib kolgan.

Surxondaryo viloyati tog'li xudud bo'lib, ularning mexnatsevarligi esa chorvachilikda qilinadigan mexnatda, chorva mollarini parvarish qilishda namoyon bo'ladi. Ular chorva boqish uchun qulay va noqulay bo'lgan yaylovlarni topishda, chorva yeydigan o't-o'lanlarning xususiyatlarini farqlashda mohir bo'lishadi. Bu misollardan ko'rinib turibdiki, har bir xududning mexnatsevarligi, ular bevosita shug'ullanadigan mexnat turlarida to'la namoyon bo'ladi.

Milliy harakterni mutloklashtirib yuborish, albatta, noto'g'ri. Boshqa xalqlarda va millatlarda uchramaydigan, faqat bir xalqqagina xos bo'lgan sof milliy harakter umuman tabiatda uchramaydi. Har bir xalq butun xususiyatlari bilan olingandagina va betakror bo'lib ko'rinishi mumkin..., uning har bir etnik xususiyati aloxida olib ko'rilsa, mutloq noyob xususiyat bo'la olmaydi. Milliy harakter muammosini o'rganishdagi murakkablik va chalkashliklar, deb ko'rsatadi. I.S.Kon, ko'pincha dialektikadagi umumiylik va xususiylik, mushtaraklik va aloxidalikni tushunmaslik natijasida vujudga keladi. Uning to'g'ri ta'kidlashicha, milliy harakterning u yoki bu xususiyatini ko'rsatganda, albatta u nisbatan olib o'rganilishi kerak.

O'zbek xalqi harakterida bir qarich yeriga yopishib olishlik, "kindik qoni to'kilgan" yerni tark etmaslik xususiyatlari bor. Bu harakter xususiyatlarining vujudga kelishi o'zbek xalqi tarixiy tarakkiyotidagi o'ziga xos xususiyatlar bilan bog'liq. Masalan, Markaziy Osiyo, xususan, hozirgi O'zbekiston xududida mavjud bo'lgan bir necha feodal davlatlar, xonliklarning siyosiy-iqtisodiy jixatdan

parchalanganligi, ular o'rtasidagi tez-tez bo'lib turadigan qonli to'qnashuvlar, xo'jalik yurgizishdagi patriarxal usullarning mavjudligi, urug'-aymokchilik urf-odatlarining saqlanib qolishi va nixoyat dexkonchilik qilish uchun sug'oriladigan, yaroqli yerlarning cheklanganligi kabi omillar, o'zbek xalqi harakteridagi shu xislatlarni vujudga keltirib chiqaradi.

Masalan, Buxoroda xozirgi kungacha saqlanib kelayotgan udumlardan- katta axil oilalarda bir necha avlod vakillari (xatto 3-4 avlod) bir-biridan ajralmagan xolda, birgalikda-bir xovlida, bir maxallada yashab bir kozondan ovkat yeb kelishlari, shuning uchun ilgarilari mavjud bo'lgan katta oila ichida, bir necha avlod vakillari yashayotganligini uchratishimiz mumkin. Oila boshlig'i bo'lgan ota o'g'illarini uylantirgandan keyin ham uzoq vaqt ularni mustaqil oila qilib ajratib yubormasligi, yangi oila qo'rgan o'g'il, katta oila boshlig'i bo'lgan ota qo'l ostida ishlab xo'jalik yurgizish ishlarida unga yordam berishi, agar yangi oila ota-ona bagridan ajralib chiqqan taqdirda ham, ular oilasi uchun ota uncha uzoq bo'lmagan joydan xovli yoki yer sotib olib berishi, yoxud o'z yeridan uy kurish uchun joy ajratib berishi, yangi oilaning kundalik extiyoji uchun zarur bo'lgan uy buyumlari, ajratib berishi, lekin shunda ham ota o'z yerini parchalanib ketishiga yo'l ko'ymasligi, o'g'il ota ko'l ostida uning yerida ishlashi, xujalik yurgizishda otaga yordam berib kelishidir. Buning boisi nimada, nima uchun O'rta Osiyo xalqlarida, xususan dexkonchilik bilan shug'ullanuvchi xalqlarda patriarxal munosabatlar oila va xo'jalik yurgizish soxalarida nisbatan uzoq saqlanib turdi? Ma'lumki, sug'orib dexkonchilik bilan shug'ullanuvchi xalqlarda, ayniksa, O'rta Osiyo sharoitida yer juda katta iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. qishin-yozin ham katta kuch bilan ishlashni talab qiladigan sharoitda ishchi kuchlari va yerning parchalanib ketishligi, yerni ishlash, xosil olishlikni ancha kiyinlashtirib kuygan bular edi. Shuning uchun ham O'zbekistonning utrok xalqlarida juda katta, xatto uch-to'rt avlod vakillarini o'zida birlashtirgan oilalar mavjud bo'lgan. Farzandlar oila boshlig'i qo'l ostida ishlab unga iqtisodiy jixatdan karam bo'lishgan. Ota yoki oiladagi bosh o'g'il bu oilaning boshlig'i bo'lgan. Uning so'zi, fikri oilaning boshqa a'zolari uchun qonun darajasida bo'lgan. Xo'jalik yurgizishda bunday patriarxal ukklad xokim bo'lgan xalqlarning deyarli hammasida, oila boshlig'ini, kattalarni xurmatlash, ularning aytganini to'xtovsiz bajarilishi odat tusini olgan va keyinchalik u mustaxkamlanib xalqning harakter xislatiga aylanib ketgan. Oila iyerarxiyasidagi o'zaro munosabatlarda ma'lum yosh guruhidagi har bir kishi, albatta o'zidan yukori yoshda turgan kishilarga itoat etgan, ularga xurmat-extirom ko'rsatilgan. Bu albatta yirik oilalarning birgalashib yashash zarurati mavjud bo'lgan sharoitlarda ularning parchalanib ketmasligi uchun katta ahamiyat kasb etgan.

Bundan tashqari aka-ukalar yoki qarindosh-urug'lar o'rtasidagina emas, shuningdek, quni-qo'shnilar bilan ham yaxshi munosabatlar, o'zaro yordam va hamkorlik kursatish kabi xislatlar ancha rivojlangan qadim vaqtlardayok bir urug' yoki qabila bir mahalla yoki butun bir qishloqda birgalikda yashagan. Kamdan-kam hollardagina begona urug' yoki qabila vakili notanish joylarga kuchib borgan. Hozir ham ko'p qishloqlarda mahallalar qarindosh-urug'chilik tamoyili asosida shakllanadi. Demak, yon qo'shni ayni vaqtda sizning yaqin qarindoshingiz hamdir.

Shuning uchun kadim vaqtlardayoq bir oilada ovqat pishirilsa- albatta qo'shnikiga, qarindoshnikiga chiqarilgan qo'shnining yaxshi kunida ham, aziyatli kunida ham birinchi bo'lib devormiyon qo'shni xizmat qiladi, qo'shnining uyidagi marakaga qatnashmaslik, ayniqsa, taziya marosimlarda ishtirok etmaslik, bizlar uchun katta ayb hisoblanadi. Shuning uchun ham bizda qo'shni to'g'risida juda obrazli makollar yaratilgan, "xovli olma, qo'shni ol", "uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni yaxshi", "yon qo'shnim - jon qo'shnim" va hokozo. Bundan tashqari milliy tabiatimizda o'zaro mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharmu hayo, ibo - iffat kabi betakror fazilatlar, bag'ri kenglik, mehmondo'stlik, oqko'ngillilik xususiyatlari mavjud. Bunday hamjixatlik, bir-birini qo'llab turishlik faqat qo'shnilar o'rtasidagina bo'lib qolmasdan, butun mahalla va qishloq aholisi o'rtasida ham kuchli rivojlangan. Mahalla yoki qishloq aholisi biror xonadonda aza borligini eshitib qolsa, vafot etgan kishini yaxshi tanish-tanimasligidan qat'iy nazar, marxum bilan vidolashmoq uchun vaqtini ayamadan, yumushini tashlab bo'lsa ham marxumning uyiga kelib, hamdardlik bildiradi, qo'ldan kelgan yordamni kursatadi. Marxumning tobuti mozorga borguncha yelkama-yelka ko'tarilib boriladi. Yo'lda uchragan har bir kishi - u otda bo'lsa ham, mashinada bo'lsa ham tushib bir necha qadam tobutni ko'tarishib borishni o'zining insoniylik burchi, deb hisoblaydi. Qo'ni-qo'shni, mahalla - kuyni va hamqishloqlarning bunday bir-birini qo'llab-qo'ltiklab turishlari, bir-birlarining manfaatlarini himoya qilishlari kishilarning uzoq davrlar mobaynida birgalikda yashab kelishi, mahalla va qishloq axlining bir-birlariga qarindosh-urug'chilik iplari bilan bog'langanliklari natijasidir.

O'rta Osiyoda kichik-kichik o'ziga mustaqil bo'lgan xonliklarning mavjudligi, yirik birlashgan hokimiyat tomonidan mamlakat miqyosida ma'muriy, xujalik ishlarini rejali rivojlantirilmasligi, natijasida, kup yirik xo'jalik ishlari - kanal qazib suv chiqarish, ariqlarni tozalash, machit va boshqa binolarni qurish, hosilni yig'ib-terib olish va shunga o'xshash ko'pchilik mehnatini talab qiladigan ishlarni xalq o'zi "xashar" yordamida bajargan. Shuning uchun mahallada va qo'shnilar orasida bo'lib turadigan xasharlarga chiqish har bir keksayu yoshning muqaddas burchi hisoblangan. Milliy harakterni xalq o'zida namoyon etadi. Lekin millat harakteri ayrim shaxslar harakterining oddiy yig'indisi emas. U ommaviy fenomen sifatida, individual harakterlarning umumiy bo'lgan xislatlari ijtimoiy jihatidan qayta ishlanib, yangi, maxsus sifatga aylangan vaqtda tarkib topib namoyon bo'ladi. Masalan, xor ovozi xech bir xor qatnashchisining ovozigacha o'xshamaganidek, milliy harakter ham birorta millat vakilining harakteriga o'xshamaydi yoki millat harakteri hyech bir millat vakilida tulaligicha aks etmaydi.

Milliy harakter o'zgarmas, turgun narsa ham emas. U tarix maxsuli. Shuning uchun ham uni vujudga keltirgan tarixiy, ijtimoiy -iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi bilan u ham ma'lum darajada o'zgaradi, xatto bir ijtimoiy tizimning o'zida ham u ayrim xislatlarni yo'qotib, yangi xislatlarni paydo qilib turishi mumkin.

"XIX asr boshlarida deb yozadi I.Kon, - nemislarni amaliy faoliyatga layoqatsiz, faqat falsafaga, musiqa va nazmga moyil bo'lgan, texnikani o'rganishga uquvsiz, kam harakat xalq, deb xisoblashgan (bu fikrga ularning

o'zlari ham kushilishgan). Germaniyada sanoat to'ntarilishi bo'lishi bilan, bu stereotip tushuncha ishonchsiz anaxronizmga aylanib qoldi". Lekin bundan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar milliy harakterning barcha xislatlarini o'zgartirib yuboradi, deb xulosa qilmaslik kerak. Uning ayrim xislatlari nisbatan barqaror bo'lib, yangi ijtimoiy sharoitlarda ham o'z vorisligini yuqotmaydi ular. Keyingi avlodlarga o'tishi, ajdodlarning moddiy va ma'naviy merosini o'zlashtirib olishligi uchun xizmat qiladi.

Tarix - avlodlarning birini o'rniga ikkinchisining kelishidan iboratdir. Ularning har biri avvalgi avlodlar qoldirgan barcha materiallaridan, boyliklaridan, ishlab chikaruvchi kuchlardan foydalanadi. Natijada avlodlararo vorislik paydo bo'ladi. Milliy udumlar umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lanib ketgan. Milliy harakter umumbashariy xususiyatlarga zid bo'lmaydi. Shuning uchun ham uni boshqa millat va elatlar harakteridan ajratib quyishi yoki qarama-qarshi quyish mumkin emas. Har bir xalq - boshqa xalq bilan yaqin ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarga kirishganda undan o'zida yo'q narsalarni oladi va o'zidan ham ularda bo'lmagan narsalarni beradi.

Lekin boshqa xalqlardan olingan bu harakter xislatlari, millat vakillari tomonidan o'zlashtirilganda, aynan, o'zgarishsiz ko'chirma olmay, o'ziga xos milliy ifodani oladi.

2.2 Milliy an'ana, urf-odat, udum va qadriyatlarining o'smir shaxsi tarbiyasidagi psixologik mexanizmlari.

Milliy istiqlool mafkurasini, umuminsoniy qadriyatlar bilan milliy o'ziga xoslik o'rtasidagi muvozanatni belgilaydigan mezonlarni aniqlash maqsadida umuminsoniy fazilatlar va o'zbeklarga xos xislatlarni urf-odat va an'analarni hamda udumlarni teranroq o'rganishga harakat qilmoqda.

Ma'lumki, baynalminal madaniyat milliy madaniyatlar yig'indisidan iboratdir, shubhasiz, baynaminal madaniyatlar taraqqiy etgan madaniyat rivojlanishi uchun alohida olimlar milliy madaniyatlar taraqqiy etgan bo'lishi kerak. Madaniyat ko'rsatkichlari, toifalari, davlat chegaralariga bo'ysunmaydi, mintaqa tanlamaydi. Hadislar butun musulmon mamlakatlaridagi kabi bizda ham yaqin o'tmishimizgacha tarbiyaning asosi qilib olingan.

O'zbek xalqining milliy an'alarini, udumlarini, turmush tarzini sinchiklab o'rgangan olimlar hadislarda keltirilgan ijobiy xislatlarni hozirgi zamon ilg'or madaniyat udumlari bilan boyitish maqsadida to'g'ri tarbiyaga molik umuminsoniy xislatlarini **olti** jihatga bo'lganlar.

1.Shaxsning umumiy xislatlari (sifatlari, jihatlari):

1. Yoqimlilik, jozibadorlik, dilbarlik, ko'rkamlik. Insonni birinchi ko'rishdayoq ko'zga tashlanadigan jozibali, dilbar o'ziga xosligi. Ko'rkam odam faqat kiyimi bilangina emas, muomalasi, odobi bilan e'tibor topadi.
2. Yoqimtoylilik, kelishganlilik – bunday xislatli kishilar xipcha, yengil, bo'yi-bastiga mos, ortiqcha og'irlikdan holi, kiyimi o'ziga, yoshiga, ishiga, atrof muhitga mos tanlangan insonlar hisoblanadi. Kelishganlik, qimmatbaho kiyimlar bilan yoki mingan avtomashinasining rusumi bilan emas, balki o'z ishiga, yoshiga mos hatti-harakatlari, odob va axloq normalariga rioya qilishlik bilan o'lchanadi, karakterlanadi.
3. Istarasi issiqlik – ayrim insonlar haqida gap ketganda istarasi issiq yoki turqi sovuq deb baholashadi. Istarasi issiq odamning yuzidan nur yog'ilib turadi. Inson yuzining rangi oq, qora, sariq, bug'doy rang bo'lishi mumkin, lekin istarasi issiqlik rang tanlamaydi.
4. Maftunkorlik, fusunkorlik, afsunkorlik ko'proq ayollarga xos bo'lib, go'zallik, ishvalik, o'ziga maftun etuvchi o'ziga xoslik bilan karakterlanadi.

5. Oydinlik, yorqinlik, ochiqlik – bunday xislatli insonlarni ko'ngli ochiq odam, teskarisini esa mug'ombir deyiladi. O'zbeklarda bir maqol bor: yuz ko'r hol so'r deyiladi. Ya'ni inson yuzida uning ochiq ko'ngilliligi ravshan ko'rinib turadi.
6. Salovatlilik, savlatlilik, hurmatga sazovorlilik. Hurmatli insonning salobati bosadi, deyiladi xalqimizda. Bu xislat ham kiygan kiyimi bilan o'lchanmaydi. Ruslarda, mehmon kiyimiga qarab qarshi olinib, aqliga qarab kuzatiladi, degan bir naql bor. Savlatlilik kishini atrofdagilarning nechog'lik hurmatini joyiga qo'yishi, tutgan mavqeyidan o'zini pastroq olib boshqalarning hurmatini balandroq qo'yishga harakat qilishi bilan harakterlanadi.
7. Buyuklik, daholik – ulkan inson tashabbusi o'z gardaniga oladi, u ko'pchilik insonlar taqdirini ijobiy tomonga burishga tayyor turadi.
8. Monandlik, muvofiqlik, uyg'unlik – insonning ham aqliy, ham jismoniy, ham axloqiy, ham irodaviy xislatlarining uyqashliligi tushuniladi.
9. Rivojlanganlik, taraqqiy qilganlilik, yetuklik, aqli rasolik, iqtidorlilik, salohiyotlilik – inson olgan bilimlar salmog'i bu bilimlarning yaxshi ishlarga tezkor qo'llanilishi bilan o'lchanadi.
10. Har tomonlilik, har taraflamalilik, ko'ptomonlamalilik – shaxsda shakllangan va rivojlangan ijobiy xislatlarning ko'p qirraliligi, ayrim olingan xislatdan ko'ra ko'pchilik xislatlarning bir xilda mukammal rivojlanganligi tushuniladi.
11. Bekamiko'stlik, butunlilik – xalqimizda hamma xislatlari badastur degan naql bor. Aslida beayb parvardigor, lekin ummatlar ichida ham bir butun, yaxlit insonlar uchraydi.
12. Nafislik, noziklik, nafosatlilik, latofatlilik – inson o'zining nafis tabiati, yurish-turishi bilan go'zallik namunasini eslatadi.
13. Yashovchanlik, umriboqiylik, barhayotlilik. Shunday insonlar borki ularning nomi tirikligidayoq tarix daftariga oltin harflar bilan yoziladi. Biri qoldirgan shogirdlari bilan, biri yaratgan buyuk ilmiy, san'at asarlari bilan, yana bir afsonaviy qahramonligi, kishilar katta ko'pchiligining taqdirini yaxshi tomonga burishligi bilan, xalqiga, butun olam ahliga ko'rsatgan karomati bilan barhayot bo'ladi.
14. So'zamollilik, so'zga chechanlilik, shoirtabiatlik – shaxsning so'zamolligi birinchi so'rashishidanoq bilinadi. To'liq ma'nodagi so'zamollik deganda eshituvchilarga mazmunli va'z ayta olishlik, yetkazilishi zarur bo'lgan ma'noni bo'rttirib, dramalashtirib, lirik so'zlar, qochirim gaplar bilan bezash ko'nikmasi, xalqsevar shoirlar she'rlaridan, so'z ustalarining naqlaridan, xalq maqollaridan ustalik bilan foydalanish tushuniladi. So'zamollik san'ati nutq madaniyati bilan bog'liq narsa.
15. Ruhlanganlik, ko'tarinkilik, jo'shqinlik, ulug'vorlik, ulug'sifatlilik – o'quvchilarni talabalarni nainki bircha tinglovchilarni biron bir faoliyatga safarbar qilish uchun so'z aytuvchining o'zi ko'tarinki ruhda bo'lishi, jo'shqin nutq so'zlashi lozim.
16. Jiddiylilik, bosiqlik – ma'lum tajriba sohibi, masalaga yengil-yelpi qaramay jiddiy yondoshadigan, kam gapirib ko'p ishlaydigan, har bir so'zi, har bir harakatiga javob beradigan shaxs.

17. Moslashuvchanlik, egiluvchanlik – oldindan kuzatilmagan, og'ir sharoitlarga tez moslashib, butun imkoniyatlarini, muammolarini yechishga qaratish, bahona qidirmay imkoniyat izlash.

18. Madaniyatlilik, odoblilik, kamsuqumlilik – har bir millatga xos odob-axloq normalarining umuminsoniy madaniy, madaniylik elementlari bilan hamohang bo'lishi.

19. Ziyolilik, savodxonlik, o'qimishlilik – shaxs umumiy xislatlarining asosini tashkil etadi. Ziyoli shaxs o'zining hatti-harakatlari bilan ziyo tarqatadi, o'qimishlilikning namunasini ko'rsatadi, odamlarning ko'ngliga tezroq yo'l topa biladi.

20. Tabiiylik, odillik, oddiylik – shaxs o'z hatti-harakatlari, odobi, axloqini tabiiy qanday bo'lsa shundayligicha ko'rsatish xislati.

2. Axloqiy xislatlar: 1. Odamiylik – chin insonga xos fazilat bo'lib, bu aql-zakovat mevasidir. Buyuk bobomiz Alisher Navoiy insonni sevishni, uning baxt saodati uchun kurashishni hayot gultoji, yuksak orzu-umidlarning eng cho'qqisi, tiriklikning o'lmas g'oyasi, yashashning mazmuni deb biladi. Odamiylikning zahirida yaxshilik, sofdillik, odillik, mehr-muhabbat, vafo-sadoqat, oqibat-shafqat, adolatu-sahovat yotadi.

Odami ersang demagil odamiy

Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami.

2. Qanoatlilik – kishining o'zida mavjud bo'lgan va o'z imkoni darajasida ishlab topgan halol mablag'i bilan kifoyalanib, oz bo'lsa ham uning sozligini hisobga olib mamnuniyat bilan kun kechirishidir. Qanoatlilik kishiga xotirjamlik keltiradi.

3. Yaqinlik, do'stonalilik – ish yuritishda, muomalada boshqa shaxslarning haqqi-huquqini, shaxsiyatini hurmat qilish, boshqa millatga mansub insonlarning urf-odati, madaniyatini, salohiyatini e'zozlash, o'ziga yaqin birodar ko'rib do'stona munosabatda bo'lishlik xislati.

4. Jonkuyarlilik, mehribonlilik, kuyunchaklik – boshqalar dardiga sherik bo'lish, ota-onaga, yetim-yesirlarga, qariyalarga xizmat qilish, ijtimoiy muhofazaishlarida faol qatnashish.

Yaxshi so'z ham sadaqa ekanligi haqida A.Navoiy yozadi:

Yaxshi so'z birla hojat ahlin so'r,

Bermasang yaxshi ta'madin nafaqa.

Ne uchunkim rasul qavli bilan:

Yaxshi so'z bordur o'ylakim sadaqa.

5. Rahmdillik, mushfiqlik – inson salohiyotida boshqalar ko'ngliga ochiq yo'l qoldirish, to'yiga ham, azasiga ham qatnashish iqtisodiy, ma'naviy ko'makka "labbay" deb tayyor turish hissi.

6. Oliyjanoblik, oliy himmatlilik – insonlarga yaxshilik istab yashash hissi.

7. Bolaxonlilik, bolajonlilik – o'zbeklarga xos, mos xislat, ko'p bolalik, bolalar uchun yashash, bolalar dardini o'zligidan yuqori qo'yish, bolalarga qayg'urish, kechirimli bo'lish hissi.

8. Atrof-muhitga e'tibor, muhofazakorlik (ekologik tarbiyalanganlik) – shaxsda yoshligidan boshlab ekologik tarbiya hissini shakllantirish kerak, toki shaxs

mustaqil hayoti davomida atrof-muhit muhofazasiga javobgarlik tuyg'usini his etsin.

9. Iymonlilik, hotamtoylik – musulmonlarga ko'proq xos xislat. Iymon insonning, oilaning, qabilaning urug'ning, millatning ko'ngli, dardi, salomatligi. Iymonlining uyida baraka, rivojlanish, omad bo'ladi. Iymonlilik poklik, ruhiy salomatlik mezon.

10. Baynalminallik, boshqa millat vakillarini ardoqlash, e'zozlash – baynalminal madaniyat millatlar, elatlar madaniyatining yig'indisi, in'ikosi. Milliy madaniyat rivojlanmas ekan baynalminal madaniyat rivojlanmaydi. Milliy madaniyat qanchalik rivojlansa baynalminal madaniyatga shuncha ko'p hissa qo'shiladi.

11. G'oyaviy sodiqlik – Mustaqil O'zbekistonning kelajagi buyuk davlat bo'lishiga ishonch, davlatimiz, prezidentimiz olib borayotgan ichki va tashqi siyosatiga ishonch.

12. Muloyimlik, xushmuomalalik, nazokatlilik, xushfe'llilik – doimo ko'ngli ochiqlik. Gapi, ishini samimiy bajo keltirish. Xushmuomalalik haqida hadisi sharifda shunday yoziladi: "Alloh taolo xushmuomalali va ochiq yuzli bandalarini do'st tutadi".

13. Uzrlilik, kechirimlilik – ayb ish qilganida kechirim so'rashga shoshilish, farzandlarni, yoshlarni, kechirish hissi.

14. Andishalilik – andishaning oti qo'rqqoqlik emas, andishalilik, irodaning belgisi. Andishalilik ko'proq o'zbeklarga xos xislat. Kattalar so'ziga quloq solish, davrada odob saqlash, ota-onaga, kattalarga, ayollarga hurmat-ehtirom; sabr-toqatli bo'lish hissi.

15. Sertakalluflilik, sermulozamatlilik – insonlar o'zaro munosabatlarida ular orasida ishonchlilikning mezon.

16. Odamlarga el bo'lishlilik, kirishimlilik, shirin suxanlilik – inson psixik holatiga, temperament turiga, dunyoqarashiga, to'g'ri tarbiyalashganligiga bog'liq bo'lib, harakterni belgilaydigan asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Xalqimizda bu odam, "ko'pni ko'rgan", "tagi toza", yoki bo'lmasa, "bu odam hyech qachon el bo'lmaydi" degan iboralar yuradi.

17. Shaxsiy manfaatlarni ijtimoiy (jamoatchilik) manfaatiga bo'ysundirish, shaxsiy manfaatdan ijtimoiy minnatdorlikni yuqori qo'ya olishlilik, shaxsiyatparastlikning teskarisi, shaxsning avvalambor boshqalar, davlat nuqtai nazarini ustun qo'yish hissi.

3. Ishbilarmonlik, ishchanlik, uddaburonlik xislatlari:

Quntlilik, tirishqoqlik, serhafsalalik – kasb egallash, mohir mutaxassis bo'lish uchun juda zarur xislat. Faoliyat hafsala bilan bajarilsa, mutaxassis quntli bo'lsagina mehnat unumdorligining yuqori cho'qqilariga erishish mumkin. Yaponiya umumta'lim makablarida maxsus qunt darslari kiritilgan. O'quvchilar uzoq vaqt davomida juda mayda qo'l mehnati bilan shug'ullanishib o'zlarida hafsalalik, quntlilik malakalarini shakllantirishadi.

Javobgarlik, mas'uliyatlilik – so'z bergandan keyin bajarishlik, ishga, o'qishga mas'uliyat hissi bilan yondoshish hissi.

Halollik, poklik – tadbirkorlik ishlarida halollik, poklik asosiy xislatlardan bo'lib, bo'lg'usi tadbirning muvaffaqiyatli yakuniga ko'p jihatdan bog'liq. Sharq

biznesmenlarining xulosalariga qaraganda har bir yangi tadbir boshlanishi oldidan tadbirkor o'zi poklanib, halol ish yuritsa bu tadbirning albatta ijobiy bo'lishi ta'minlangan bo'ladi.

Urinchoqlik, serharakatlilik, tirishqoqlik – tadbirni amalga oshirishda birgina halollikning o'zi yetarli emas. Buning uchun shaxsning tirishib, urinib harakat qilishi, doimo harakatda bo'lishi lozim bo'ladi.

Musobaqaviylik, raqobatlilik, muqobillik – hozirgi bozor munosabatlariga o'tishda raqobatlilik, bir ishni tezroq, oldinroq bajarishga shoshilish muvaffaqiyat keltiradi. Musobaqaviylik o'quv jarayonida ham o'quv jarayonini aktivlashtirish omili hisoblanadi. Faol talabalarni rag'batlantirish, yuqori, tez o'zlashtiruvchilarni eksternat dasturlariga o'tkazish astoydillikni ta'minlaydi.

Ijro etuvchanlik, ishchanlik, bajaruvchanlik – ishlab chiqarish ishini, o'quv ishini vaqtida bajarish shaxsni intizomlilikka, tartibga o'rgatadi, xotirani mustahkamlaydi, turli salbiy oqibatlarining oldi olinadi.

Zo'r beruvchanlik, kuchanuvchanlik – har bir tartibda shunday damlar uchraydiki harakat qilinib urinish yetarli bo'lmay qoladi. Hamma fikrni, kuchni ishlatib zo'r berishga to'g'ri keladi.

Malakalilik, salohiyatlilik – malakalilik faqat bilimlar bilan o'lchanmaydi. Malakalilik orttirilgan bilimlarni ko'nikmalarga, malakaga aylantirilsagina mutaxassis yuqori malakali hisoblanadi, mehnati yuqori baholanadi, mahsulotini doimo ijodiy yangiliklar bilan boyitib boradi.

Sifatlilik, yuqori navlilik – mahsulotni, tayyorlangan mutaxassislarning yuqori sifatlilikiga bozor iqtisodiyoti sharoitida hamma tabaqalarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishni do'ndirishlilik, ishni o'rniga qo'yuvchanlik, ishni o'rinlatmoqlik – shaxsning ko'p yillik qunt bilan olib borgan harakatlari natijasida topshirilgan ishni tez, unumli bajarish ko'nikmasini egallashi.

Chaqqonlik, abjirlik, epchillik – shaxsning topshirilgan ishni ko'p mehnat, kuch sarflamasdan ustalik bilan bajarish ko'nikmasini egallashi.

Saranjom-sarishtalik, jo-bajo ish tutish, batartiblik – shaxsning kiyinishida, ish tutishda, muomalasida, odobida namoyon bo'ladigan batartiblik ko'nikmalari.

Ishning havasini olganlik, ishning hadisini olganlik – shaxsning avtomat malakalarni shakllantirishi. Ko'p o'ylamay ishni malakali bajarish ko'nikmasi.

Ishga layoqatlilik, hormas-tolmaslik, imkonlilik – shaxsning uzoq muddat talab etilgan darajaga ishga layoqatliligini saqlab qola olishlilik ko'nikmasi. Layoqatli xizmatchi ish kunining boshida ham, oxirida ham bir xilda unumli, ham sifatli mehnat qila oladi.

Tashabbuskorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik – shaxsning hali ochilmagan yo'ldan turli usullar, imkoniyatlar topib olg'a yura olishi, yangilikni, tashabbuskorlikni qo'lga olib atrofdagilarni shu ishga safarbar qila olish ko'nikmasi.

Aqlga, maqsadga muvofiqlik, ma'qullik, ixtirochilik – rasional shaxs ishni bajarish uchun kerakli a'zolarinigina jalb qila olish ko'nikmasiga ega bo'ladi, kam mehnat qilib ko'p mahsulot oladi, kam kuch sarflab ko'p samara oladi.

Chidamlilik, sabr-toqatlilik, bardoshlik, toqatlilik, baquvvatlik – shaxsning uzoq vaqt katta kuchlanish talab qiladigan faoliyatda qatnasha olish ko'nikmasi.

Muntazamlilik, rejalilik – shaxsning rejali ish tutish ko'nikmasi. Buyuk Napoleon “faoliyatda, harakatlarda faqat oldindan rejalashtirilgan narsagagina erishish mumkin, hych qanday tasodif natija bermaydi” degan.

Juda aniqlik, o'z vaqtida bo'lishlik, puxtalik – tadbirkorlikda ko'p narsa aniq vaqt bilan o'lchanadi, “vaqting ketdi naqding ketdi” – xalqimizda shunday naql bor.

Tejamkorlik, ehtiyotkorlik, mo'tadillik – shaxsning tejamli ish yuritishi, ishning kirimidan chiqimini kam qilib yuritish, doimo zahirada biron qism mulkni saqlashi, evida ish yuritish ko'nikmalari.

Hadisi sharifda, har bir ishning salbiy tomonlarini hisobga olish ayni ehtiyotkorlikdir, deyiladi.

Sahiylik, ochiq qo'llik, hotamtoylik, jo'mardlik – tadbirkor shaxs sahiy ham bo'lishi, hotamtoylik ko'nikmalari sohibi bo'lishi kerak.

4. Shaxsning zakovatlilik, idroklilik, zukkolik xislatlari: Zehnllilik, ziyraklik – shaxsning tabiat hodisalari, qonunlariga, jamiyat iqtisodiy jarayonlariga oid qonuniyatlarini umumlashtira olishi va kerakli joyda samarali foydalanish ko'nikmalari.

Xotiralilik – xotiralilik shaxsning eng asosiy psixik xislatlaridan biri. Faoliyatda ko'p narsa aynan xotiraga bog'liq. Fiziologlarning fikricha inson organizmining umr bo'yi xotirada saqlash mumkin bo'lgan imkoniyatlarining bir necha foizigina ishlatilar ekan. Demak, har bir insonning xotiraviy potensial imkoniyati to'lig'icha ishlatilmaydi. Xotira, xotiraviylik o'qishni, ishni qay darajada rejali tashkil qilishga, vaqtida ishla, vaqtida dam olib, vaqtida ovqatlanishga bog'liq jarayon.

Mantiqiylik, izchillik, teran fikrlilik – shaxsning hodisalar, qonuniyatlar orasidagi o'zak bog'lanishlar tizimini, mantiqini tuza olish ko'nikmasi. Har bir faoliyatda, hatti-harakatda, darsda o'qilgan leksiyada, ayblovchi va oqlovchi nutqida mantiq bo'lishi kerak. Xalqimizda “Gapingning tuzi yo'q”, degan naql bor. Mantiqli ma'ruza, mantiqli darslik, mantiqiy ilmiy asar inson tomonidan tez tushunib anglanadi, uzoq vaqt xotirada saqlanadi. Biron ta teoremani isbotlash mantiqi, ketma-ketligi esdan chiqmaydi.

Asoslilik, isbotlanganlik, muhrlanganlik – shaxsning tayyorlayotgan axborotini nechog'lik asosli qilib tayyorlash ko'nikmasi. Hozirda qaysi mamlakat xalqi, fan, texnika texnologiya, tijorat, valyuta siyosati haqidagi axborotlarga ega bo'lsa shu mamlakat rivojlangan mamlakatlar qatorida bo'ladi. Shu jihatdan o'qituvchining sinfga olib kirayotgan axboroti nihoyatda asosli bo'lishi lozim.

Oldindan aytib beruvchanlik, bashoratgo'ylik – hodisalarni, jarayonlarning yo'sinini oldindan prognoslash, oldindan aytib berish insonning eng noyob xislatlaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, leksiyaning ikkita funksiyasi bor: 1. Umumlashtirish funksiyasi. 2. Oldindan aytib berish prognostik funksiyasi. Agar leksiya shu ikki funksiyani bajarmasa u oddiy suhbat darsi bo'lib qoladi. Leksiyaning prognostik funksiyasi deganda funksiya ijtimoiy jarayon haqida bo'lsa, biron qit'ada, davlatda sosial

iqtisodiy rivojlanishning borishiga qarab rivojlanish yo'nalishini, me'yorini oldindan aytib berish mumkin.

Aqlning o'tkirligini namoyon qilmoq – zakovatlilik, shaxsning biron-bir qarorga tezkorlik bilan kelish uchun aqlning o'tkir bo'lishini, tez-tez “charxlanib” turishini ta'minlash kerak.

Ijodkorlik, topog'onlik – shaxsning o'z faoliyati davomida, hanuzgacha yechilmagan muammoni yechish, ixtiro qilish ko'nikmasi. Ixtiro, ijod nazariy va amaliy fanlar orasida yotadigan tilsim. Bu tilsim politexnik bilim, iqtidor va ko'nikmalarga ega bo'lgan insonlargagina ochiladi. Ixtirochilik, ijodkorlik davlatning milliy boyligi hisoblanadi.

Tushunarlilik, ravshanlilik, lo'ndalik – nazariya qanchalik harakatga yaqin bo'lsa, shunchalik tushunilishi oson kechadi, ko'rinishi sodda bo'ladi. Mutaxassisga ish topshirilayotganida ham, talab qilinayotganligida ham masala lo'nda, aniq va ravshan bo'lishi ta'minlanishi darkor.

Tanqidiylik – shaxs faoliyatida ishga tanqidiy munosabatda bo'lishi, o'z hatti-harakatlarini tanqidiy nuqtai nazar bilan kuzatishi muhim xislatlardan hisoblanadi.

Xabardorlik, omilkorlik – shaxsning o'z mutaxassisligi bo'yicha to'liq ma'lumotga ega bo'lishi, o'z sohasining dunyoviy jarayonlardan tahlilga moslash, ulardan o'rganish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Savodxonlilik, bilimdonlilik – shaxsning tili, yozuvi nechog'lik to'g'ri, adabiy bo'lishi, ishlatgan iboralarini qisqa mantiqli, tushunarli qilib bayon etish ko'nikmasi.

Odatdan tashqari fikrlash – shaxs talantining mezoni, o'ziga xosligida, boshqalardan farqli o'laroq yangicha fikrlash ko'nikmasi.

Hayratlilik, hayratmandlik – shaxs nozik jarayonlarni, faktlarni nihoyatda sinchkovlik bilan kuzata olishi, bu jarayonlardan hayratlanib yanada yangi natijalar olishga qiziqish ko'nikmalari.

Qiziquvchanlik, ishqibozlik – shaxsning tabiatan tabiatga, turli jarayonlarga, fanga, san'atga qiziquvchanligi. Psixologik ichki motivasiya, shu jumladan, ishqibozlik ko'pincha tashqi ta'sirdan ustun turadi.

Sinchkovlik, diqqatlilik – hozirgi axborotni, ayniqsa kompyuterlar yordamida asrash, ishlov berish davrida sinchkovlik xislati va aniq javob topish uchun juda ham qo'l keladi.

Chuqur bilimdonlilik, saviyalilik – saviyalilik faqat bilimdonligigina emas, bilki har tomonlamalilik, hozirjavoblilik mezoni.

5. Irodaviylik xislatlari: Serg'ayratlilik, serharakatlilik, qat'iyatlilik – shaxs temperament turiga, tipiga mos serharakatlilik darajasi faoliyatning samaradorligini belgilaydi.

Chaqqonlik, epchillik, uddaburonlik – shaxs sa'y-harakati samarali bo'lishi uchun uddaburonlik xislatlariga ega bo'lishi kerak. Bu xislat ham bilvosita shaxs ehtirosi tiplariga bog'liq.

Vazminlik, sipolilik, bosiqlik, kamsuqumlilik – vazminlik, sipolik irodaviylik belgisi, irodasi kuchli shaxsdagina vazminlik belgilari bo'lishi mumkin.

Jo'shqinlik, serzavqlik, issiqmijozlilik – shaxsning faoliyatida zavqi-shavqlilik, jo'shqinlik, ko'tarinki ruh bilan ish yuritish odati, qaltis vaziyatlarni serzavqlik

bilan yengish, janjallashish o'rniga odamlar ko'nglini ko'tarish, shaxsiy namuna ko'rsatib odamlarni o'z ortidan ergashtirish ko'nikmalari.

Zardasi tezlik, serzardalilik – shaxsning ehtiros turiga bog'liq xislati, ayrim holatlarda zardali shaxsning ishi yurishadi, ko'p hollarda ijobiy natija beradi.

Bir so'zda turishlilik, qat'iyatlilik, qat'iylik – shaxsning maqsad yo'lida og'ishmay qilgan faoliyati. Agar rahbar tez-tez o'z qarorini o'zgartiraversa tez subuti ketishi mumkin. O'qituvchi bir qo'yilgan talabani og'ishmay talab qilaversa oxiri ijobiy natija erishi mumkin.

Tashabbuskorlik, ilg'orlik – shaxsning tezkorlik, tinib-tinchimas, tadbirkorlik xislatlari. Tashabbus juda ham javobgarlik talab etadigan xislat. Ammo ayrim shaxslar uchun tashabbus bilan chiqish va ayniqsa shu tashabbusni amalda bajarish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish hyech qanday qo'shimcha qiyinchilik tug'dirmaydi.

Intizomlilik, bosiqlik, uyushganlilik – shaxs harakteridagi eng asosiy xislatlaridan biri. Intizom ishni, faoliyatni tashkil qilishning asosi. Intizom bo'lmasa ishlab chiqarish ham, oddiy dars ham o'z maqsadiga erishmaydi. Intizomga beriluvchan shaxslar bor, intizomga qiyin bo'ysunadigan insonlar bor. Agarda hamma intizomga bo'ysunsa har qanday qiyinchilikni yengish, maqsad sari ildam odimlar bilan yurish imkoniyati tug'iladi.

Intizomlilik – bu faoliyatning keragicha va maslahatga muvofiq ravishda amalga oshirilishiga kuch etmoqligidir. Yemoq-ichmoqda, uyquda, ish, kasbda, har bir kasbda intizomdan chiqmagan odam baxtu saodatga erishadi.

6. Ehtirosli xislatlar: Shodmonlik, o'z hayotidan rozilik, baxtiyorlik, ko'tarinkilik, tantanavorlik, quvnoqlik, xushchaqchaqlik-psixologik jihatdan shaxsni doimo quvnoq yurishi, ish faoliyatini yaxshilashga, turli ruhiy kasalliklarning oldini olishga, og'ir sharoitda ham atrofdagilarning kayfiyatini, tez charchamaslikning oldini olish imkonini olish beradi.

Hazil-mutoyibalik, hazilkashlik, joyida ustalik bilan ishlatilgan hazil faoliyatda ham, odamlar o'rtasidagi munosabatlarda, diplomatiyada juda katta ahamiyatga ega. Bir tomonda hazilni ustalik bilan ishlatish bo'lsa, ikkinchi tomondan shu hazilni tushuna bilish, hazil qila olish hissi bor.

Ishonuvchanlik – shaxsning ijobiy xislalaridan biri boshqalarga ishonch hissi hamma ham shunday xislatga ega bo'lsa olam guliston bo'lur edi. Lekin har doim ham shunday bo'lavermaydi. Irodali shaxs ishonch hissi bilan boshqalarni tarbiyalamog'i darkor.

Kek saqlamaslik, adovatsizlik, gina-qudratsizlik – musulmonchilikda arazlash muddati uch kundan oshmasligi kerak ekan. Agar uch kundan ortiq arazlab yurilsa gunoh hisoblanarkan. Ayrim shaxslar bir marta o'tgan ginani umrbod esidan chiqarmay o'ziga dushman orttirishadi.

Otashinlik, qig'inlik, jo'shqinlik – barcha shaxslarga xos xislat, lekin ba'zilarida bir oz namoyon bo'ladi, ba'zilarida esa o'ta oshiq namoyon bo'ladi. Bu xislat ham ehtiros tipiga bog'liq bo'ladi.

Uyatchanlik, tortiqchoqlik, mo'min-qobillic – me'yoridagi diyonatlilik insonga husn beradi, atrofdagilarga unga nisbatan ijobiy fikr uyg'otadi.

Ozodalik, nozik tabiatlilik – inson ehtirosli xislatlarining eng nafisi gard yuqtirmaslik hissi hisoblanadi. Qayerda bo'lmasin inson o'zini ozoda tutsa shuncha ruhi pok, fikri-qiziqishi yaxshi bo'ladi.

Yuqorida ko'rsatilgan shaxsiy xislatlarni shakllantirish o'quv-tarbiya ishlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Hamma mamlakatlarda ham ana shunday ijobiy xislatlarni o'z xalqida shakllantirish harakat qilinadi. Ana shu ma'noda tarbiyaning umumiy maqsadi dunyo pedagogik jarayonida yagona maqsadga – umuminsoniy xislatlarni shakllantirishga qaratiladi. Falsafa fani, uning turli qarama-qarshiliklari, turli oqimlari, nazariyalari bilan birga yagona bo'lganidek, pedagogika ham umumiy maqsadi bo'yicha dunyoviy pedagogik jarayonda yagona, bir jinsli deb qaraladi. Gap ana shu maqsadlarga qanday vositalar bilan, qanday izchillikda va qaysi ma'noda erishishga bog'liq. Birmamlakat ta'lim va tarbiyaning bir shaklini ta'minlasa, ikkinchisi o'zgacharoq, uchinchi yana bir boshqacha yo'l tutadi. Shu jumladan xalqning, elatning o'z udumi, odati, turmush tarzi bor. Mana shu kabi o'ziga xoslik ta'lim va tarbiyaning o'ziga xos shakl, vosita va uslublarini, xalqning umumiy madaniyatini belgilaydi.

III BOB. O'SMIR SHAXSI SHAKLLANISHIDA OILAVIY QADRIYATLARNI EMPIRIK JIHATDAN O'RGANISH NATIJALARI.

3.1. Tadqiqotda qo'llaniladigan asosiy metodlar va metodikalarning qisqacha tavsifi va olingan natijalar taxlili.

Tabiat va jamiyatdagi barcha o'zgarishlar birinchi navbatda inson fe'l-atvori, ruhiyati va mentalitetida o'z ta'sirini qoldiradi. Mentalitet o'zgarishlari esa, davlat tizimi, tuzilmalari va xatto jamiyat qiyofasini ham o'zgartirib yuborishga kodir ekanligi ayon bulmokda.

Ma'lumki, dunyo hozirgi kunda umumiy ahloq, muayyan mazmundagi ma'naviy qiyofa, global mohiyatga ega tamoyillar uchun kurash fazasiga kirdi. Rivojlangan mamlakatlar nafaqat sanoat maxsulotlari, informasion va mafkuraviy ta'sir kursatish omillari orqali keng kulamlardagi geopolitik siyosat yurgizishmokda, balki o'z xalqi tabiati, fe'l-atvori, mentaliteti, o'ziga xosliklarini muntazam ravishda dunyo xalqlari turmush tarziga, hayotining barcha jabhalariga izchil singdirishga intilmokda. Dunyo xalqlari uchun umumiy etiket, umumiy fe'l-

atvor, umumiy mentalitet maxsus va izchil ravishda tarkib toptirilmokda. Siyosiy, iqtisodiy va informasion globallashuv mentalitetlar, ruhiy o'ziga xosliklar, fe'l-atvorning standartlashuviga ham turtki bermokda.

Garchi dunyo xalqlari mentalitetlarining standartlashuvi muayyan ijobiy jihatlarni ifoda etsa ham o'z navbatida bir qator salbiy oqibatlariga ham olib keladi. Xususan, bu narsa xalqning milliy o'zligidan chekinishga, madaniyatning vorisiylik an'analariga, milliy harakter bir bugunligiga putur yetkazadi.

XVI asr boshlaridan e'tiboran davom etgan siyosiy — ijtimoiy tanazzul va bir yarim asrlik mustamlaka davrlari mobaynida o'zbek xalqi o'zligini asrash, milliy madaniyatini ma'naviy hamda ahloqiy yaxlitligini saqlab qolish borasida mislsiz matonat ko'rsata bildi. Milliy madaniyatini muhofaza etish jarayonlari zaiflashgan davlat xomiyligida emas, balki asosan aholi turli tabaqalariga mansub oddiy insonlar, ziyolilar, xunarmandlar, dexqonlar, umuman olganda jamiyat kuchi vositasida amalga oshirilib kelindi va quyidagilarda o'z ifodasini topdi:

1. O'zbek xalqi tanazzul va mustamlaka davrlaridan o'zining etnik yaxlitligini saqlagan xolda chiqa bildi;
2. Xalqimiz ma'naviyatining yorkin ifodasi bo'lgan urf-odatlar, an'analar, rasm-rusumlar, marosim va ma'rakalar tizimi saklab kolindi;
4. O'tmish madaniyatimizning o'lmas obidalari, buyuk mutafakkirlarimiz qalamiga mansub bebaxo asarlarning katta kismi, vaxshiylarcha talon—tarojlarga karamay turli tadbirlarni qo'llash orqali asrab-avaylandi va avlodlarga yetkazildi;
5. Til birligi va tozaligini uzoq yillar davomida maxsus o'tkazilgan ta'sir va tazyiqlarga karamay saqlashga erishildi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, turli xil millat ma'naviyatiga yot bo'lgan ahloqiy kodekslar, turmush tarzining o'zgacha uslublarini singdirish borasidagi uzluksiz tazyiqlarga qaramay xalqimiz o'zining bag'rikengligi, saxovat peshaligi, mehmondustligi, sabr-bardoshliligi singari chin insoniy fazilatlarini yo'qotmadi.

Tabiiyki, yurtimizning asl farzandlari tomonidan xalqimizning milliy o'ziga xosligini saqlab qolish, uning ma'navii poydevorlariga jiddiy putur yetkazmaslik uchun olib borgan goh oshkora, goh xufyona kurashida kuyidagi omillar xal kiluvchi ahamiyat kasb etdi:

1. Xalqimiz tarixiy-madaniy ildizlarining teranligi va sertomirligi, boy ma'naviy merosning mavjudligi;
2. Xalqimizning asosan o'troq hayot kechirib kelganligi, o'troq xayot esa turgun mazmundagi urf-odatlarni taqozo etishi, aholining ijtimoiy-ma'naviy mo'ljallarida shahar ruhi, ma'naviyatining an'anaviy ustuvor mavqye kasb etib kelganligi;
3. Xalqimizning o'z milliy madaniyati, tili, san'ati, adabiyotiga muhabbati, urf-odatlar, rasm — rusumlar, an'ana va marosimlarga sodiqligi, xalq odatlariga millatning ma'naviy qiyofasi sifatida e'zozlab yondosha bilganligi;
4. Islom dini bilan xalq an'anaviy madaniyatining uyg'unlashuvi, tarkibdagi din bilan mazlum bo'lgan xalqning ozodlik uchun kurashida e'tiqodiy birlik holati tarkib topganligi va mustahkam amal qilib kelganligi;
5. O'zbek xalqining chidamliligi, cheksiz-chegarasiz sabr-bardoshi, bag'ri kengligi, g'animlarni beixtiyor qurolsizlantirishga qodir sofdilligi, samimiyati, mehribonligi, yordam va hamisha hamkorlikka shay qalbi va xokazo omillar

xalqimizning ma'naviy, etnik hamda ijtimoiy — siyosiy voqyelik sifatida saqlana bilganligi va yashovchanligiga imkon berdi.

Ayni vaqtda ta'kidlash joizki, shu davr mobaynida xalqimiz yo'qotgan qadriyatlar saqlab qolishga erishilgan qadriyatlardan bir necha xissa ko'prokdir. Ayniqsa, o'tgan bir yarim asrlik mustamlaka davri va undan oldingi 300 yillik turg'unlik va tarqoqlik davri o'zbek xalqi qiyofasida jiddiy asoratlar qoldirdi. Xalqimizga xos bo'lgan bahamjixatlik, hamkorlik, jangovarlik, axdga vafodorlik, sadoqat, har ishda birinchi bo'lishga kuchli rag'bat, so'z va amal birligi singari fazilatlarimizga jiddiy putur yetkazildi. Mamlakatimiz tarixidagi so'nggi 400 yil mobaynida xalqni milliy birlashishga da'vat etish borasida sa'y—harakatlarning izchil olib borilmaganligi, faqat etnik, sulolaviy va xududiy birlashish bilan qanoat hosil qilish ohir oqibatlarni yuzaga keltirdi. Xalqimiz boshiga tushgan qirginbarot urushlar, iqtisodiy va ma'naviy xo'rlanishlar, millat tabiatida befarqlik, konformizm, mutelik, har qanday zuravonliklarga ko'nish xislatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bu esa xalqning tashki tazyiqlarga qarshi tura olish, xavflarga qarshi kurashganlik, immunitet kuchini susaytirib yubordi. Natijada xalqimiz tabiatida

1. Ma'naviy merosga hurmat, vorislik an'analarining susayishi;
2. Milliy birlikka intilishdan ko'ra guruh, etnik, mahalliy va xududiy ayirmachilikka berilishning kuchayishi;
3. Xalq harakterida yangiliklarga intilish, yaratish, bunyodkorlik hissidan ko'ra taqdirga tan berish, tangridan panox izlash, qanoat, sabr—bardosh, ko'nikish, hamma narsaga rozi bo'lib ketaverish, «hamma narsa baribirlik» maylining ustunlik qilib, umumiy holat sifatida shakllanishi;
4. Odamlarning ma'naviy, ahloqiy agressivlik va maksimalizmga berilishi;
5. Xududiy, sulolaviy, jamoaviy negizlardagi begonalashuv va ajralishlar tendensiyasining favqulodda kuchayishi;
6. Ma'rifiy tanazzulning chuqurlashuvi, savodsizlik darajasini ortishi kuzatila boshlandi.

Ma'lumki Buxoro xalqi tabiatan yaxshiga xavasli, ibratga moyil, kattaga extiromli, kichikka izzatli, ergashuvchanlik mayli kuchli xalqdir. Ana shu ergashuvchanlik, ibratga moyillik xislatlarini millat manfaatlariga bura olish, ularni vatan ravnaqi yo'lga safarbar etish, bu fazilatlarimizni nopok kimsalardan, shubhali siyosiy oqimlardan muxofaza etish, ganimlarning garazli kirdikorlariga kurbon bulishdan asrash favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi.

Udum va an'analar xalqning tarixiy shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yaratilgan va ajdodlardan avlodlarga muqaddas meros sifatida o'tib kelayotgan bebaho ma'naviy boylik hisoblanadi. Millatning asosiy belgilaridan biriga aylangan odatlarni asrash va kamol toptirish har bir avlodning muqaddas burchi bo'lib qolyapti. Udum va an'analar barhayot bo'lishi uchun, eng avvalo, uni kelajagimiz bunyodkorlari - yoshlar egallashi lozim.

Xalq an'analarining tiklanishi borasida so'z borganda, yoshlar kamolotida muhim o'rin tutadigan xalq o'yinlariga alohida to'xtalish lozim. Ajdodlarimizning eng qadimiy an'anaviy, ko'pgina madaniyat shakllari - raqs,

teatr va sportga xos marosimlar shu o'yinlar zaminidan kelib chiqqan va tarixiy jarayonda avlod - ajdodlarimizning sog'lomlashtiruvchi vositasi bo'lib kelgan.

Bundan tashqari an'ananing ta'sir doirasi nisbatan keng bo'lib, bitta an'ana bir necha urf-odat, udum va marosimlarni o'zida qamrab olgan bo'lishi mumkin. Misol tariqasida Buxoro xalqida mavjud bo'lgan mehmondo'stlikni olib qaraydigan bo'lsak, mehmondustlik u yoki bu darajada har bir xalq va millatga xos bo'lgan xususiyatdir. Lekin bu narsa Buxoroda o'ziga xos ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar ta'siri ostida, oilaviy-maishiy xayotdagi munosabatlar natijasida o'zbek xalqida o'ziga xos bir yusinda namoyon bo'ladiki, bu o'zbek xalqining milliy xususiyatiga, milliy an'anaga aylanib kolgan. Mana shu mehmondo'stlik an'anasi bir necha urf-odatlar, udumlar orqali to'la namoyon bo'ladi. Masalan, Buxoro oilalarida mehmon har doim ochiq chehra va shirin kalom bilan kutib olinadi. Xonadondagi eng yaxshi va noyob narsalar (bunday narsalar doimo "mehmon uchun", deb saklanadi) mehmon oldiga kuyiladi. Mehmon xonadonga kirib kelishi bilan mezbon ikki kulini kuksiga kuyib, "xush kelibsiz", deb kutib olinadi va xurmatli zot sifatida eng yukori joyga utkaziladi. Kuni-qo'shnilar chakirilib mehmonga hamsuxbat va ulfat kilinadi. Ovkati ham birinchi bo'lib, yoshidan kat'iy nazar mehmonga tortiladi. Mehmon boshlamaguncha, oilaning birorta a'zosi birinchi bo'lib taomga qo'l urmaydi. O'tirishdagi birinchi so'z ham mehmonga beriladi, uning so'ziga diqqat bilan quloq solinadi. Unga e'tiroz bildirish, gap qaytarish, katta ayb hisoblanadi. Mehmon oldida oila a'zolari birlari bilan xushmuomalada bulishlari, xatto "mushugini ham pisht", demasligi kerak. Mehmon kuzatilayotganda kutib olish chogidagidek, ikki kul kuksida bo'lib, "xush kurdik", "yana kelib turing", deb xayr-ma'zur kilinadi. Endi udum va marosimlarga kelsak, ular kuchli psixologik va xissiy ta'sir etish kuchiga ega bo'lib, shular yordamida urf-odat va an'analar bevosita yuzaga chiqadi.

Udum u yoki bu urf-odat va an'ananing bajarish vaqtida amal qilinadigan tartib va qoidalardir. Marosim esa, udumni ko'z-ko'z qilib turadigan tashki bezagi va tasviri, ya'ni bajarilish jarayonidir.

Bizning asosiy vazifamiz va burchimiz ham ajdodlarimizdan yetib kelgan ko'plab urf-odat, an'ana, udum va marosimlarni har tomonlama o'rganish, asrlar sinoviga bardosh bergan va davr sinoatidan o'tgan, turmushimizga fayz kiritadigan, kishilarni yetuklikka chorlaydigan ilg'or urf-odatlarimizni saqlab qolishimiz va aksincha, qachonlardir turli sabablar bilan vujudga kelgan, endilikda o'z umrini yashab bo'lgan, qop-qorong'u tun kabi dilimizni siyoh qilayotgan, eng muhimi jamiyat tarakkqiyotiga monelik qilayotgan urf-odat va an'analardan voz kechishimiz kerak.

Urf-odat va udumlar har bir xalqqa abadul-abad berilgan va xech o'zgarmaydigan narsa emas. Hayot ularni galvirdan o'tkazib, puchagini puchakka, sarasini sarakka ajratib beradi. Yangi davrga moslasha olgani saqlanib qoladi. Shuning bilan birga har bir davr o'zining udum va marosimlarini, urf-odat va an'analarni yaratadi. Yangi vujudga kelayotgan urf-odatlar, udumlar o'z-o'zidan, quruq yerda paydo bo'lmasdan, asosan ikki man'ba - birinchisi, ilgari mavjud bo'lgan ilg'or an'analar zamon ruhiga moslashtiriladi, ikkinchisi, boshqa xalqlar

bilan bo'ladigan iqtisodiy, ma'naviy aloqalar natijasida ulardagi ilg'or an'analar o'zlashtiriladi

O'zgarayotgan O'zbekiston kelajagi ozod va ongli fikrlovchi fukarolarning erkin tafakkur tarzi, ularning yangilikka tashna bunyodkorlik ruxi hamda faqat o'zgargan o'zbek mentaliteti vositasida yaratilishi shubxasizdir. Xalqaro maydonda jonajon O'zbekistonimiz suzi xurmat bilan eshitila boshlandi. Ma'naviyat, ma'rifat, odob—ahloq milliy tarakkiyotimizning ustuvor mezonlariga aylandi.

Tadqiqotni amalga oshirishda ko'zda tutilgan ilmiy farazlarni isbotlash maqsadida psixodiagnostik metodlardan: so'rovnomalar, kuzatish, maxsus psixologik testlar, hamda anketa vositasida o'rganiladi. Tadqiqot asosan Buxoroning etnopsixologik madaniyatini o'rganish uchun oilaviy qadriyatlarning shakllanishidagi o'rni va roli buyicha olib borilgan bo'lib, unda axolining turli katamlari vakillari ishtirok etishdi va uz fikrlarini bildirdilar.

Zamonaviy psixologiya fanida keng qo'llanib kelinayotgan I.G.Seninning "Qadriyatlar yo'nalishi savolnomasi" metodikasi qo'llanilib, 100 nafar o'smir (50 nafar qizlar, 50 nafar yigitlar) ishtirok etdi.

O'smirlarning ma'naviyatga oid bilimlarini diagnostika qilish maqsadida Fridmanning «Yaxshi degan so'z nima-yu, yomon degani nima?» metodikasidan foydalangan edik. O'tkazilgan tadqiqot natijalarining miqdoriy tahlili 1-jadvalda keltirilgan:

1-jadval

O'smirlarda ma'naviy-ahloqiy sohaga oid tushunchalarning shakllanganlik darajasi

Guruhlar	O'quvchilar miqdori (foizda)	ballar	
		eksperimentgacha	eksperimentdan keyin
eksperimental	15-20	8	0
	20-25	36	9
	25-30	41	64
	30-35	14	27
nazorat	15-20	9	6
	20-25	27	33
	25-30	48	45
	30-35	12	15

Jadvalda eksperimental guruhda o'quv yili davomida yuz bergan o'zgarishlarni yaqqol kuzatish mumkin. Ma'naviy ahloqiy sohaga oid bilimlar eksperimental guruhdagi ko'pgina o'quvchilarda to'laroq, to'g'riroq va aniqroq bo'lgani ko'zga tashlanadi. Masalan, eksperiment o'tkazilgandan keyin "ma'naviyat" tushunchasiga ta'rif bering, degan topshiriqqa quyidagicha javoblar olindi:

A.Vohid: "Ma'naviyat- insonning boshqalarga yaxshilik qilishga intilishi"

B.Ismoil: "ma'naviyat ahloqiy qadriyatlarni bilish va ularga asoslanib yashash".

V.Mohira: "Ma'naviyat kishining ichki dunyosini anglatadi. Ichki dunyoda ezgu niyatlar, insonparvarlik va mehnatsevarlik ustuvor bo'lishi kerak".

A.Sevara: "Ma'naviyat negizida yaxshilik va go'zallikka intilish yotadi. Ma'naviyat do'stlarga, barcha insonlarga mehribon bo'lishga, yaxshilik qilishga undaydi"

Nazorat guruhida boshqacharoq manzara namoyon bo'ldi. Bu guruhdagi javoblar o'quv yili boshlanishidagidan biroz farq qilsa ham, aksariyat javoblar to'liq emas va sayoz edi. Bu guruhdagi ba'zi o'smirlar esa savolga javob berisha olmadi. So'rovda ishtirok etgan 31 o'smirdan yettitasi savolga umuman javob bermagan. Berilgan javoblarning tipiklari quyidagicha bo'ldi:

B.Ilhom: "Ma'naviyat bu yaxshilik".

I. Ibrohim: "Ma'naviyat ko'p kitob o'qish va darslarni yaxshi egallashdan iborat".

Z.Kamol: "Ma'naviyat yaxshi kiyinish va o'zini madaniyatli tutishda namoyon bo'ladi".

E.Manzura: "Ma'naviyat kattalarning so'zlariga quloq solish, ularning gaplarini qaytarmaslikda ko'rinadi".

N.Ismoil: "O'zing hohishing bilan bajargan ishlar ma'naviyatni tashkil qiladi"

Eksperimental guruh va nazorat guruhi a'zolarining ma'naviyatga bergan ta'riflarini qiyosiy tahlil qilib aytish mumkinki, ma'naviy – ahloqiy sohaga oid bilimlarni o'zlashtirish va ularni amaliyotga tadbiiq qilish jarayonida o'smirlarning faol ishtirok etmasligi, ya'ni o'qituvchi bergan bilimlarni eshitish bilan cheklanishi ularni bu hodisalarga nisbatan befarq bo'lishiga olib keladi. Faqatgina reja asosida, sabr qanoat bilan maxsus o'tkazilgan tadbirlar natijasidagina bu mavzuga o'smirlarning qiziqishini uyg'otish mumkin. Qiziqishning uyg'onishi ma'naviy-ahloqiy hodisalarni o'rganishda dastlabki qadamni tashkil etadi.

O'smirlarning ma'naviy-ahloqiy hodisalarga emosional munosabatini tahlil qilish uchun G.Fridmanning "Nima qilmoq kerak" metodikasidan foydalanilgan edi. Ularga muayyan vaziyatni bayon qilib, shunday vaziyat paydo bo'lsa, o'zlarini qanday tutishlari haqida so'zlab berish so'ralgan edi. Shu bilan birga, mazkur vaziyatda ular o'zlarini nima uchun aynan shunday tutishlari sababini izohlash ham topshirilgan edi. Tadqiqot natijalari 2-jadvalda keltirilgan:

2-jadval

Keltirilgan vaziyatlarda o'quvchilar tanlovining yo'nalishi


guruhlar	Eksperimental guruh		Nazorat guruhi	
Javoblar	eksperimentgacha	keyin	eksperimentgacha	keyin


yo'nalishi %				
Ma'naviy-ahloqiy	17	44	20	17
Amaliy pragmatik	40	31	43	45
befarq	43	25	37	38

Eksperimental guruhda nazorat guruhidagidan farqli ravishda , jiddiy o'zgarishlar yuz berganini kuzatish mumkin. Eksperiment yakunida shu guruhda ma'naviy-ahloqiy yo'nalishda javob bergan o'smirlar soni eksperiment boshlanishidagiga nisbatan 24 foizga ortgan. Befarq yo'nalishda javob berganlar soni esa 18 foizga kamaygan. Nazorat guruhida esa sezilarli o'zgarishlar yuz bermadi. Mana shu holat o'tkazilgan psixologik eksperiment o'smirlarning shaxsiy tanlovlari ko'proq ma'naviy-ahloqiy yo'nalishda yuz bera boshlaganidan darak beradi.


Olingan natijalar diagrammada quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

O'smirlar tanlovi yo'nalishi Eksperimental guruh





Nazorat guruhi



Ma'naviy-ahloqiy rivojlanishning xulq-atvor komponentini tashxis qilish uchun ekspert baholashi usulini kuzatish usuli bilan qo'shib ishlatdik. O'quvchilar dars jarayonida, darsdan tashqari tadbirlar (ekskursiyalar, shanbaliklar, qishloq xo'jalik ishlari) jarayonida yil bo'yi kuzatildi. Tadqiqot natijalari farazimizning to'g'riligini tasdiqladi. O'zlarining shaxsiy fikri va tanlovi asosida harakat qilishini bildirgan o'smirlarning 7 foizigina o'zlari bildirgan fikrga amal qilishini

namoyon etdi. Bunday hol ma'naviy-ahloqiy tasavvur va fikrlar qattiq ishonch yoki e'tiqodga aylanmaguncha xulq-atvorda namoyon bo'lmashligini amalda ko'rsatdi. O'smirda juda to'g'ri ma'naviy-ahloqiy tasavvur va tushunchalar bo'lishi mumkin, lekin amalda ularga rioya qilmaslik ham mumkin.

Tadqiqotimizda o'smirlar orasida "Sinfdoshlarim xarakteridagi menga yoqadigan va yoqmaydigan xususiyatlar" mavzuida insho olganimiz bayon qilingan edi. Bu insho o'quvchilarning e'tibori asosan, o'quv jarayoni bilan bog'liq xususiyatlarga qaratilganini ko'rsatdi. Ular, bilimdonlik, kamtarlik, rostgo'ylik, sinfdoshlarga yordam berish kabi sifatlarni yoqtirishlarini bayon qilishgan edi.

3-jadval

**Eksperimental guruhdagi o'smirlar uchun shaxsiy sifatlar ahamiyatining
o'quv yili boshlanishi va yakunidagi qiyosiy tahlili**

O'smirlarga yoqadigan sifatlar	Shu sifatlarni tanlagan o'quvchilar (%)	
	O'quv yili boshida	O'quv yili oxirida
O'qishga munosabat		
Yuqori intellektual daraja	-	1
O'qishga jiddiy munosabat	2	4
2-guruh. Ahloqiy-emosional sifatlar		
Do'stlarga sadoqat	19	19
halollik	10	13
rostgo'ylik	7	9
ochiqko'ngillik	4	5
muloqotmandlik	5	4
sadoqat	3	8
hazilkashlik	8	3
O'ziga ishonch	7	4
beg'arazlik	3	7
3-guruh. Iroda sifatlari		
mehnatsevarlik	6	5
mardlik	4	6
matonat	2	3
Maqsadga intilish	1	4
irodalilik	2	4

O'quvchilar tomonidan salbiy, deb baholangan sifatlar orasida ham o'quv jarayoni bilan bog'liq sifatlar yetakchi o'rinni egalladi. Shuningdek, sinfda va oilada yaxshi munosabatlar qaror topishiga xalaqit beradigan sifatlar ham kamchilik sifatida ko'proq tilga olingan. Shu bilan birga, o'qish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ijobiy sifatlarning ham, salbiy sifatlarning ham ulushi sinflar yuqorilagani sari pasayib borishi kuzatildi. Tajriba sifatida 5-sinf o'quvchilari orasida o'tkazilgan tadqiqot ularning 37 foizi o'qish bilan bog'liq sifatlarga katta e'tibor qaratsa, 7-sinfda bunday sifatlarga 23 foiz o'quvchilar jiddiy ahamiyat berishi ma'lum bo'ldi.

3-a jadval

O'quvchilar yoqtirmaydigan sifatlar

O'quvchilarga yoqmaydigan sifatlar	Shu sifatlarni belgilagan o'quvchilar miqdori (%)	
	O'quv yili boshida	O'quv yili oxirida
O'qishga munosabat		
intizomsizlik	12	4
O'qishga yuzaki munosabat	11	5
Yomon xulq	14	7
	Ahloqiy-emosional sifatlar	
manmanlik	3	1
qo'pollik	5	11
xudbinlik	3	8
xasislik	6	9
sotqinlik	7	9
ikkiyuzlamalik	6	10
Sigaret chekish	11	9
surbetlik	3	7
urushqoqlik	5	8
	Iroda sifatleri	
qo'rqqoqlik	9	6
yengiltaklik	6	7
o'zini tuta bilmaslik	5	8
qiyinchiliklarni yenga olmaslik	4	5
irodasizlik	7	8

3-jadvalda o'smirlarning shaxsiy sifatlar ahamiyatiga munosabatidagi o'zgarishlar ifodalangan. Eksperiment o'tkazilgandan keyin 1-guruhga kiritilgan sifatlar orasida o'qishga jiddiy munosabatning ortgani kuzatildi. 2-guruhga kiritilgan sifatlar orasida do'stlarga sadoqat, halollik, rostgo'ylik, sadoqat singari sifatning ortgani ma'lum bo'ldi. 3-guruhga kiritilgan sifatlar munosabatda esa sezilarli o'zgarishlar kuzatilmadi. Bunday holatning sababi shundaki,eksperiment "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" darsligi mundarijasiga kiritilgan mavzular asosida o'tkazildi. Bu darslik mundarijasida ma'naviyatning shakllanishida irodaviy sifatning zarurligini ifodalaydigan mavzular deyarli yo'q. Tadqiqotning avvalgi paragraflarida bayon qilinganiday, ma'naviyat, ayniqsa, yuksak ma'naviyat shakllanishi uchun bilimdonlikning o'zi kifoya qilmaydi. Yuksak ma'naviyat intellektual, ma'naviy-ahloqiy va irodaviy sifatning uyg'unligi natijasida vujudga keladi.

3-a jadvalda o'smirlar yoqtirmaydigan sifatlar keltirilgan. Bu jadvalda ham ma'naviy-ahloqiy jihatdan salbiy hisoblanadigan sifatlar munosabatning sezilarli o'zgarishi kuzatildi. Salbiy irodaviy sifatlar esa munosabatning jiddiy o'zgarishi

kuzatilmadi. Bu holat ham yuqoridagi xulosamizni tasdiqlaydi, ya'ni "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" darsligi mundarijasiga irodaviy sifatlarga oid mavzular kiritilmagani bilan izohlanadi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, eksperiment natijasida ijobiy tomonga ham, salbiy tomonga ham yuz bergan o'zgarishlar miqdori ko'p hollarda 15-20 foizdan ortmadi. Lekin mana shu siljishning o'zi eksperiment muvaffaqiyatli o'tganidan dalolat beradi. Eksperimentga qadar o'smirlarning ko'pchiligi o'zlaridagi va do'stlaridagi intellektual, ma'naviy-ahloqiy va irodaviy sifatlarning mohiyati, xususiyatlari, rivojlantirish yo'llari to'g'risida o'ylab, bosh qotirib ko'rishmagan. Bu sifatlarning qaysi biri ijobiy va qaysi biri salbiy ekani ham ularni unchalik qiziqitirmagan. Eksperiment jarayonida ular bu haqda bosh qotira boshladilar. Endi ularda o'zlaridagi va do'stlaridagi intellektual, ma'naviy-ahloqiy, irodaviy sifatlarga qiziqish paydo bo'ldi. Endi o'smirlar bu sifatlarni hayot uchun muhim, dolzarb hodisalar sifatida idrok qila boshladilar. Bu esa o'smirlar ma'naviy-ahloqiy rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi.

Eksperiment davomida ma'naviy-ahloqiy va irodaviy sifatlarga munosabatdagi o'zgarishlarni ana shu sifatlarga qiziqish paydo bo'lishining natijasi, deb baholash lozim. Shuning uchun eksperiment natijalarini shu eksperiment keltirgan natijalar majmui, deb emas, eksperiment keltiradigan natijalarning boshlanishi, deb baholash haqiqatga yaqinroq bo'ladi. Chunki eksperimentning natijalari biz keltirgan ijobiy o'zgarishlar bilan tugamaydi. Intellektual, ma'naviy-ahloqiy va irodaviy sifatlarga nisbatan paydo bo'lgan qiziqish o'smirlarning hayoti davomida uzoq vaqt o'zining ijobiy natijalarini beradi, deb kutish mumkin.

O'smirlarning iroda sifatlari yuqori darajada rivojlanganlari 15% bo'lgani holda shu sifatni tanlagan o'smirlar 4%ni tashkil etishi izoh talab qiladi. Bunday holat ularning qanday qadriyatlarga yo'naltirilgani bilan bog'liq bo'lsa kerak, degan taxmin eksperimentda ishtirok etgan o'smirlar qadriyatlarini o'rganishimizga turtki berdi. O'smirlar qadriyatlarini o'rganish quyidagi manzarani ko'rsatdi:

Oilaviy qadriyatlar reytingi

Qadriyatning nomi	Shu qadriyatni tanlagan o'smirlar (%)
Baxtli oila	19,5
Yaxshi va sadoqatli do'stlar	19
Salomatlik	4,7
Sevgi	14,5
Boylik	16,2
O'ziga ishonch	2,4
Bilim	4,3
Yaxshi kasb	6,5
Tabiat va san'atdagi go'zallik	4,5
Faol turmush	5,5
ijod	4,7

Jadvaldan ko'rinishicha, baxtli oila, yaxshi va sadoqatli do'stlar, boylik singari qadriyatlar eng yuqori reytingga ega bo'lgan. Bilim qadriyati faqat 4,3 foiz o'smirlar tomonidan tanlangan. Mana shu raqamni o'smirlarning bilim olish bilan bog'liq sifatlarni tanlashi natijalari bilan solishtirsak, ular o'rtasida korrelyasiya mavjudligi ayon bo'ladi. O'qish bilan bog'liq bo'lgan irodalilikni 4 foiz o'smir tanlagan bo'lsa, bilim qadriyatini 4,3 foiz o'smir belgilagan.

O'smirlik yoshidagi bolalar uchun referent guruh ularning tengdoshlari hisoblanadi. Eksperimentda ishtirok etgan o'smirlar uchun yaxshi va sadoqatli do'stlarning reytingi yuqori ekani mana shu holat bilan izohlanadi. "Baxtli oila", "boylik", qadriyatlarining yuqori reytingga ega bo'lishini o'smirlarning ijtimoiylashuv jarayonlari, jamiyatda yetakchi bo'lgan qadriyatlarni egallayotganlari bilan izohlash mumkin bo'lsa, "sevgi" qadriyatining yuqori reytingga ega bo'lishini ular organizmida yuz berayotgan psixofiziologik jarayonlar bilan izohlash mumkin. "O'ziga ishonch", va "ijod" qadriyatlarining past reytingga ega bo'lishini bir tomondan o'smirlarda refleksiya jarayonlari yuqori cho'qqiga chiqib ulgurmagani va ikkinchi tomondan, oila va maktabdagi tarbiya jarayonlarida shu qadriyatlarga kamroq e'tibor berilayotgani bilan izohlash mumkin. Shu fikrimizni bir qator ota-onalar va pedagoglar bilan o'tkazgan suhbatlarimiz tasdiqladi.

"Tabiat va san'atdagi go'zallik" qadriyatining past reytingga ega ekanini bir tomondan oilalarda bu qadriyatlarga deyarli e'tibor berilmayotgani va maktablarda esa yetarli e'tibor berilmayotgani bilan izohlash mumkin. Shunisi ham borki, o'smirlar go'zallikning ko'rinishlaridan bo'lgan chiroyli kiyim, chiroyli harakatlarga katta e'tibor berishadi. Lekin eksperiment jarayonida go'zallik bilan bog'liq qadriyatlarning ular tomonidan yetarli baholanmagani ular ongida "go'zallik" kategoriyasi haqidagi tasavvur va tushunchalar yetarli darajada shakllanmaganini ko'rsatadi. Bu qadriyatlarning past reytingga ega bo'lishiga sabablardan biri maktablarimizda estetik tarbiyaga yetarli e'tibor berilmayotganida, deb hisoblash lozim. Bundan tashqari, bozor munosabatlariga o'tish sharoitida narsa va buyumlarning utilitar jihatlariga ko'proq e'tibor berila boshlagani oqibatida ularning estetik jihatlarini keyingi planga o'tib qolishi ham ma'lum. Shu holat ham go'zallik tuyg'usining susayishiga olib keladi.

"Ijod" qadriyatining o'smirlar tomonidan past reytingli qadriyat sifatida baholanishi tarbiya jarayonida muayyan o'zgarishlar qilish zarurligidan dalolat beradi. Bizning pedagoglar bilan o'tkazgan suhbatlarimiz ular tarbiyaviy ishlar rejasini tuzishda psixodiagnostik tadbirlar o'tkazmasdan bu ishga kirishishlari ma'lum bo'ldi. Bizningcha, yuqori qadriyatga ega bo'lishi lozim bo'lgan "go'zallik", "ijod" singari qadriyatlarning past reytingga ega bo'lish sabablaridan biri shunda. Pedagoglar bilan suhbatlarimiz tarbiyaviy ish rejalarini ko'p hollarda ular bunday rejalarini o'tgan yilgi rejalar asosida tuzishlarini ko'rsatdi. Holbuki, har yili maktabga yangi o'quvchilar keladi, o'quvchilarning joriy yildagi holati o'tgan yildagidan ancha farq qiladi. Hayotimizda bo'layotgan o'zgarishlar ham tarbiya tizimi va jarayoni oldiga yangidan yangi vazifalarni qo'yimoqda. Bularning bari har bir o'quv yili boshlanishida psixologik tashxis o'tkazishni va shu asosda ta'lim va tarbiya rejalarini tuzish va amalga oshirishni taqozo etadi.

Shunday qilib o'smirlarning qadriyatlarga yo'naltirilganliklarini psixologik tahlil qilish ularda qaysi qadriyatlar yuqori va qaysi qadriyatlar pastroq reytingga egaligini ko'rsatdi. Ayni paytda o'smirlar tarbiyasini rejalashtirishdan avval psixologik tashxis o'tkazish zarurligi yana bir marta tasdiqlandi. O'smirlar ma'naviyati shakllanganlik darajasini, uni yuksaltirish, takomillashtirish vazifasi qo'yilganda esa M. Rokich yoki Ye.Fontalovning qadriyatlarga yo'naltirilganlikni aniqlash metodikalaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi ma'lum bo'ldi.

Eksperimental tadqiqot yakunida erishilgan natijalarni eksperiment boshlanishidagi holat bilan qiyoslash quyidagi manzarani namoyon qildi:

Eksperimental tadqiqot boshlanishi, ya'ni 2009-2010 o'quv yili boshida o'smirlarning ma'naviy-ahloqiy rivojlanganlik darajasi haqidagi empirik ma'lumotlar

Guruhlar %	Ma'naviy-ahloqiy rivojlanganlik darajasi		
	quyi	o'rta	yuqori
eksperimental	73	24	3
nazorat	71	27	4

Eksperimental tadqiqot yakunlanishi, ya'ni 2009-2010 o'quv yili oxirida o'smirlarning ma'naviy-ahloqiy rivojlanganlik darajasi haqidagi empirik ma'lumotlar:

Guruhlar %	Ma'naviy-ahloqiy rivojlanganlik darajasi		
	quyi	o'rta	yuqori
Eksperimental	47	45	8
nazorat	64	33	3

Eksperimental tadqiqot boshlanishi va yakunidagi holatni qiyoslash o'tkazilgan tadbirlar, xususan, "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanini o'qitish bo'yicha taklif qilgan modelimiz sezilarli natijalar bergani ma'lum bo'ldi. Ko'rinib turganidek, eksperiment yakunida ma'naviy-ahloqiy rivojlanganlik darajasi quyi bo'lgan o'smirlar soni sezilarli darajada kamaydi va eksperiment boshlanishidagiga qaraganda 26 foiz kamroq bo'ldi. Bu raqam bir paytning o'zida ham yaxshi, ham yetarli emas. Bu ko'rsatkich yana ham yuqoriroq bo'lishi mumkin edi. Lekin mazkur fanni o'qitish uchun ajratilgan soatlar doirasida erishilgan ko'rsatkichni, bizningcha, yaxshi, deb baholash mumkin.

Eksperiment jarayonida eng yuqori o'sish ko'rsatkichi ma'naviy-ahloqiy rivojlanishi o'rtacha bo'lgan guruhda ko'zga tashlandi va 21 foizni tashkil qildi.

Eksperiment boshlanishida ma'naviy-ahloqiy rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan o'smirlar miqdorining o'sishi 5 foizni tashkil qildi va bu ko'rsatkich ham fanni o'qitish uchun ajratilgan soatlar doirasida qoniqarli, deb baholanishi mumkin. Mazkur ko'rsatkichni nazorat guruhidagi o'sish 1 foizni tashkil etishiga solishtirilsa, shu fikr haqiqatga yaqinligi ayon bo'ladi

Olib boirlgan diagnostik ishlar bo'yicha xulosalar

1. Eksperiment natijalaridan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki , ma'naviy tarbiya sohasida hozirgi kunda ustuvorlik qilayotgan ma'rifiy yondashuv yuqori samara bera olmaydi. Bu yondashuv ma'naviyat masalalari bo'yicha o'smirlarni ma'lum darajada bilimdon qilishi mumkin, lekin, ularni ma'naviy e'tiqodli, ishi bilan so'zi bir shaxslar qilib tarbiyalash uchun yetarli emas. Bu yondashuv o'smirlarning bilim doirasini kengaytirishi mumkin, lekin shu bilimlarni amalda qo'llashga tayyorlash uchun o'jizlik qiladi. Bunday holat mamlakatimizning hozirgi taraqqiyot bosqichida ma'naviy tarbiya sohasida kun tartibiga qo'yilayotgan vazifalarni hal qilish uchun javob bera olmaydi.
2. Nazariya va amaliyot sohasida to'plangan tajribalarni umumlashtirish o'smirlarning ma'naviy rivojlanganlik darajasini uch guruhga, ya'ni quyi, o'rta va yuqori guruhlarga bo'lib o'rganish samarali ekanini ko'rsatdi.
3. Eksperimental va nazorat guruhlarida olingan natijalarni qiyosiy tahlil qilish o'tkazilgan eksperimentning samarali ekanini isbotladi. O'smirlarni ma'naviy-ahloqiy rivojlantirish masalasiga tizimli yondashuv, jumladan o'smirlarning ma'naviyat masalalari bo'yicha kognitiv, emosional va xulq-atvor komponentlarini bir-biriga mutanosib ravishda rivojlantirish belgilangan maqsadlarga erishishning eng samarali usuli ekanini tasdiqlandi.
4. O'smirlar orasida ma'naviy-ahloqiy rivojlanishi quyi va o'rta darajada bo'lganlar ulushining kattaligi birnecha sabablar tufayli ekanini aniqlandi. Bu sabablar quyidagilar: a) o'smirlarda ma'naviy-ahloqiy soha haqidagi tushuncha va tasavvurlarning yetarli emasligi; b) maktab tomonidan o'quvchilar ongiga singdirilmoqchi bo'linayotgan ijod, bilim, atrofdagi voqea-hodislarga faol munosabatda bo'lish singari qadriyatlarining past reytingga egaligi, jumladan, tarbiyaviy ishlarga ma'rufiy yondashuv ustuvorlik qilayotgani bilan bog'liqligi; v)hozirgi o'smirlarda ma'naviy-ahloqiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismlari bo'lgan iroda va empatiya tuyg'usining yetarli darajada rivojlanmagani va bu hol o'smirlarning ma'naviy-ahloqiy soha haqida olayotgan bilimlarining amaliy harakatlarga aylanishiga to'sqinlik qilayotgani.
5. Qo'lga kiritilgan natijalar tadqiqotning asosiy farazi, ya'ni ma'naviy-ahloqiy tarbiya jarayonidan ko'zlangan maqsadlarga faqat tarbiyani o'zini-o'zi tarbiyalash jarayoni bilan uyg'unlashtirilganda erishish mumkinligini, o'smir o'zini-o'zi tarbiyalashga kirishishi uchun uning ongida ma'naviy ahloqiy qadriyatlar ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi lozimligini ko'rsatdi. Tarbiya jarayonida o'smir irodasini va empatiya tuyg'usini rivojlantirishga qaratilgan samarali tadbirlar amalga oshirilgandagina erishish mumknligini tasdiqlandi.

XULOSA.

Ma'naviyat yo'q joyda taraqqiyot ham, baxt-saodat ham kelajak ham bo'lmaydi. Ma'lumki, har bir jamiyatda kelajak taqdiri navqiron avlodlar qo'lida bo'lganidek, har bir xalqning ma'naviy va madaniy kamolot darajasi, eng avvalo, yoshlar tarbiyasida ko'rinadi. Istiqbolini o'ylagan har qanday ma'naviyati va madaniyati qanday shakllanishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

Istiklol tufayli odamlarning uz takdirlarini uzlari erkin belgilash imkoniyatlariga keng yo'l ochildi. Shu yunalishda odamlarning individual ravishda kamolotga, farovonlikka, tukanlikka intilish xususiyatlari ham ravshan namoyon bula boshladi.

Ma'naviyati yuksak, odob-axloqli, ma'rifatli, madaniyatli kishilargina elim, yurtim deb yashaydi, bironlarga himmat-muruvvat ko'rsatishni, yordamga muhtoj kishilarga ko'mak berish va to'g'ri yo'l ko'rsatishni o'zi uchun baxt deb biladi. Yuksak madaniyat sohibi bo'lgan insonlar boshiga mushkul ish tushgan kishining mushkulini oson qiladi, dardiga malham bo'ladi, hojatini chiqaradi, yetim-yesirlarni parvarish qiladi. Ma'naviyatli, ma'rifatli kishilarda milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'usi, oriyat kuchli bo'ladi. Ana shunday fazilatlariga ega bo'lgan kishilar o'z millati, elulusi manfaati sharafini himoya qilishni o'zi uchun shon-sharaf deb biladi. Vataniga xavf tug'ilsa, uning ximoyasi yo'lida mol-dunyosini, jonu jahonni ayamaydi, fidoiylilik va qahramonlik namunalarini ko'rsatadi.

Ma'naviy barkamol bo'lgan odamlar bironlar orqasidan ginaxonlik qilmaydi, gap tashimaydi, fisqu fasad, bo'htonga nisbatan murosasiz bo'ladi, mahalliychilikka yo'l qo'ymaydi, guruhbozlikka, millat ajratishlarga qarshi

astoydil kurashadi, milliy birdamlik, milliy hamkorlik va milliy hamjihatlik, o'zaro do'stlikni qaror toptirish va mustahkamlash yo'lida tinmay harakat qiladi.

Etnopsixologik xususiyatlar xalq xayotining butun borligida namoyon bo'libgina kolmasdan, shuningdek, shu millatga mansub bo'lgan shaxslarning kundalik muomalasida, xati-harakatlarida ham ma'lum darajada uz ifodasini topadi. Chunki har bir inson bolasi ma'lum bir Vatan farzandi, shaxs sifatida ma'lum bir jamiyat mevasi. Bizning dunyoni bilishdagi turli-tuman tasavvur va tushunchalarimiz ham shu jamiyatning va etnik muhitning bizga kursatayotgan ta'siri ostida vujudga kelgan.

Milliy kadriyat, ta'bir joiz bo'lsa, millatning sifat belgisidir. Inson xayoti va faoliyatini kadriyatlarsiz tasavvur qilib bulmaydi. Insonning shaxsiy va ijtimoiy xayotiga daxldor barcha buyumlar, narsa va xodisalar kadriyat xisoblanadi. Aslida insonning uzi ham, uning xayoti, xatti-harakatlari, yuksak oliyjanob fazilatlari ham ma'lum ma'noda kadriyatdir. "Kadriyat" suzi kadim zamonlarda paydo bo'lgan bo'lib, u barcha xalqlar ma'naviy xayotining asosini tashkil etadi. "Kadriyat" atamasi asli arabcha "Kadr" suzidan olingan bo'lib, kimmatli, foydali ma'nolarini anglatadi. Kadriyatlar moxiyat va mazmunga kura umuminsoniy, milliy va diniy shaklda namoyon bo'lishi mumkin.

Umuminsoniy kadriyatlar barcha xalqlar xayot tarzi asosida yaratilgan va umumbashariy harakterga ega bo'lgan kadriyatlardir. O'zbekistonning demokratik jamiyat kurish harakatlari: erkinlik, tenglik, ijtimoiy xakikat, ijtimoiy adolat, konun ustivorligi singari umumbashariy tamoyillarga bo'lganextiyojini yanada oshiradi.

Milliy kadriyatlarimiz orasida milliy an'analar aloxida urin tutadi. Milliy an'analarimizning kuch-kudrati shundaki, u diniy ahloq-odob koidalari bilan chambarchas boglanib, jamoatchilik asosida odamlar xatti-harakatlarini baxolab boradi. Adolatparvarlik, saxovatpeshalik, iymon, diyonat, nafs balosiga qarshi kurashish singari kadriyatlar, rivoyat, xikmatlar kadimiy Sharkda ilk bor iloxiy tarzda ilgari surilgan. Islom madaniyatining asoschilari, peshvolari Axmad Yassaviy, At-Termiziy, Ismoil Buxoriy, Baxouddin Nakshband va ularning yuzlab izdoshlari xalqimizning ajoyib kadriyatlarini rivojlantirib borganlar.

Oллоx oldida shoxu-gadoning tengligi, saxiylik, xalollik, insof va adolat, iymon va diyonat kabi tushunchalarga mukaddaslik mazmunini berganlar ham shu buyuk insonlardir.

Milliy kadriyatlarning ahamiyatli tomoni shundaki, u odamlarni yuksak maksadlarga da'vat etadi, unga nisbatan ishonch uygotadi, har bir fukaroning oila, jamiyat va mamlakat oldidagi uzlarining mas'uliyatini chukur anglashga xizmat qiladi. Milliy kadriyatlar, an'analar va udumlar odamning ichki va ruhiy olamini boyitadi.

Jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar jamiyat va shaxs ongida aks etadi. Ikkinchi tomondan, ma'naviyat sohasidagi o'zgarishlar jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlarning miqyosiga, yo'nalishiga va sur'atlariga jiddiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Shuning uchun mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalarida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar jamiyatimiz, ijtimoiy guruhlar va alohida fuqarolar ongida o'z in'ikosini topmoqda. O'z navbatida mamalakatimizdagi islohotlar ko'لامي va sur'atlari ma'naviyatimizning ham tez sur'atlar bilan

rivojlanishini, aksariyat hollarda esa ijtimoiy-iqtisodiy soha rivojidan ildamroq va oldinroq yurishini taqozo etmoqda. Bunday vazifani bajarish uchun ma'naviyat yuksalishiga ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan baracha imkoniyatlarni ishga solish zarurati sezilmoqda. Ayni paytda ma'naviyatni yuksaltirish, ayniqsa o'smir yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish ko'lami va sur'atlariga kuchli ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan psixologik omillarning imkoniyatlaridan yetarli foydalanilmayapti.

Shaxsni ma'naviy tarbiyalash uning butun umri davomida amalga oshirilishi lozim. Biroq bu vazifa individning o'smirlik davrida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Zero bu davrda shaxsning ijtimoiylashuvi, ma'naviyatning negizi bo'lgan qadriyatlarni o'zlashtirish jarayoni juda tezlashib ketadi. Shaxsning ma'naviy rivojlanishiga mana shu davrda ozgina e'tiborsizlik qilinsa, u aksilijtimoiy yo'nalishga burilib ketishi, jamiyatimiz uchun yot bo'lgan mafkuralar, g'oyalar ta'siriga tushib qolishi mumkin.

Ma'naviy tarbiyani samarali amalga oshirish uchun ma'naviyatning metodologik va umumiy jihatlarini aniqlab olish zarur. Bu yo'nalishda jahon va mamlakatimiz olimlari tomonidan ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirilgan. Xususan, mamlakatimiz Prezidenti I.Karimovning ma'ruza va nutqlarida, risola va maqolalarida ma'naviyatni anglash yangi pog'onaga ko'tarildi. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarining e'lon qilinishi ma'naviyatni tadqiq qilishda yangi bosqichni boshlab berdi. Ma'naviyat va ma'naviy tarbiya masalalarining O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi shu yo'nalishda ijtimoiy-gumanitar fanlarda olib borilayotgan tadqiqotlar kengayishiga kuchli ta'sir o'tkazdi. Bu sohada, ayniqsa, mamlakatimiz faylasuflari, siyosatshunoslari, pedagog-olimlari tomonidan ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirildi. Ayni paytda mamlakatimiz psixologlari tomonidan shu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlarni yetarli, deb bo'lmaydi.

O'smirlik davrida shaxs o'zining ma'naviy-ahloqiy rivojlanishida hal qiluvchi qadamlarni qo'yadi. Shu holatning o'zi ham o'smirlarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash va bu jarayonga ta'sir o'tkazuvchi barcha omillarni, jumladan, psixologik mexanizm sifatida oilaviy qadriyatlarni tadqiq qilish qanchalik muhim ahamiyat kasb etishidan guvohlik beradi.

O'smirlarni ma'naviy-ahloqiy rivojlantirish masalasiga tizimli yondashuv, jumladan, bu jarayonda kognitiv, emosional va xulq-atvor komponentlarini bir-biriga mutanosib ravishda rivojlantirish belgilangan maqsadlarga erishishning eng samarali usuli ekani haqidagi faraz tasdiqlandi.

O'smirlarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash ularning o'zlarini o'zlari tarbiyalashga yo'naltirish bilan qo'shib olib borilgandagina yuqori samarali bo'lishi mumkinligi haqidagi faraz ham o'z tasdig'ini topdi.

Tavsiyalar:

O'smir shaxsi shakllanishida oilaviy qadriyatlarning psixologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha olib borgan nazariy va eksperimental tadqiqotlarimiz quyidagi amaliy tavsiyalarni berish uchun imkoniyat yaratdi:

1. Shaxsning ma'naviy ahloqiy rivojlanishi jarayoni uning oilaviy qadriyatlarga ijobiy munosabat tizimi shakllanishi doirasi kengayishi,

ideallari va qadriyatlari yuksalishi bilan uyg'un tarzda kechadi. Shuning uchun o'smirlarning oilaviy shakllantirish va mavjuy qadriyatlarga faol ijobiy munosabatlar tizimini yuksaltirish orqali ma'naviy-ahloqiy tarbiya samaradorligini oshirishga erishish mumkin.

2. O'smir shaxsi shakllanishida oilaviy qadriyatlarning o'rnini va ularning shu jihatlarini aniqlash bo'yicha psixodiagnostika tadbirlari o'tkazish zarur. Psixologik tashxis natijalariga qarab o'smirlarni tarbiyalash bo'yicha aniq reja va dastur tuzish mumkin. Psixologik tashxis o'tkazishda o'smirlarning qadriyatlarga yo'naltirilganini aniqlash bo'yicha M.Rokich, V.Ye.Fontalova metodikalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.
3. O'smirlarning qadriyatlarga yo'nalganliklari masalasiga oydinlik kiritib olgach, ularning shu qadriyatlarga qanchalik kuchli yoki kuchsiz yo'naltirilganini, boshqacha aytganda, ular ma'naviyatining rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun quyidagilar mezon qilib olinishi tavsiya etiladi: 1. O'smirda shakllangan qadriyatlarning umuminsoniy qadriyatlarga mosligi; 2. Umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishga intilish; 3. Yangi ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarni yaratishga intilish; 4. Ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilishdagi ishtiroki; 5. Shaxsning barqaror pozitsiyasini shakllanganlik darajasi; 6. Ma'naviy qadriyatlarni tanqidiy anglashga intilishi.
4. O'smirlarni e'tiqodli, so'zi bilan ishi bir shaxslar qilib tarbiyalashda ma'rifiy yondashuvning o'zi kifoya qilmaydi. Ma'naviy-ahloqiy tarbiya jarayonida kognitiv jihatlar bilan bir qatorda o'smirlarning emosional va xulq-atvor jihatlarini tarbiyalashga ham alohida e'tibor qaratish zarur.
5. Ma'naviy-ahloqiy tarbiya jarayonidan ko'zlangan maqsadlarga faqat tarbiyani o'zini-o'zi tarbiyalash jarayoni bilan uyg'unlashtirilganda erishish mumkinligini hisobga olib, o'smir o'zini-o'zi tarbiyalashga yo'naltirilishi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Bunga erishish uchun o'smirlar ongida ma'naviy-ahloqiy qadriyatlar ustuvor ahamiyatga ega bo'lishini ta'minlaydigan tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Jumladan, tarbiya jarayonida o'smir irodasini va empatiya tuyg'usini rivojlantirishga qaratilgan samarali tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi.

Shuningdek, Prezidentimizning urf-odatlar, maraka va marosimlarning mazmuni va mohiyatini jamoatchilik tomonidan chukur mushoxada qilish zarurati negizida ma'naviy xayotimizni tubdan islox qilish konsepsiyasi mujassamdir. Bu konsepsiya mazmun-mohiyati kuyidagi omillarga urg'u berishni kun tartibiga kuyadi:

Birinchiidan, ijtimoiy xayot jarayonlariga rasional ya'ni, tuy va marosimlarimizni tarbiyaviy jixatdan foydalilik darajasiga kura;

Ikkinchiidan, **urf-odatlarimizning soglom turmushga nechog'li xizmat qilishiga ko'ra;**

Uchinchiidan, an'analarimizning yoshlar ma'naviyatini intellektual- ma'rifiy boyitish imkoniyatiga kura;

To'rtinchidan, rasm-rusumlarimizning zamonaviy hayot talablariga nechog'lik mos, muvofiqlik darajasiga ko'ra;

Beshinchidan, urf-odatlarimiz yosh avlodning o'z istiqbolini, ijtimoiy mo'ljallarini to'g'ri belgilay olishdek muhim vazafalarga xizmat qila olishiga ko'ra yalpi baholash tamoyillarini o'z ichiga oladi.

2. O'zbek mentalitetining bir tomondan jamoaviylik, ikkinchi jihatdan esa ibratga, namunaga, andozalarga moyillik tabiatidan unumli foydalanish yo'lidan borishlari ma'lum. Xalqimiz hamisha obru'-e'tiborli odamlar say'-harakatlari, qilgan ishlarini, yurgan yo'llarini takrorlab, saodatga erishishni orzu qiladilar. Xalqimizda «Yaxshiga ergashsang el, yomonga ergashsang yer bulasan», «Sizning yo'lingizni bizga ham bersin» yoxud «Hamisha bizga bosh bo'lib yuring» singari tilak hamda iboralari millatimizning regulativlik, ya'ni ijobiy boshqaruvga moyillik tabiatini ta'kidlaydi. Mahallaning oddiy fuqarosi har kancha boy-badavlat bo'lmasin o'z mahallasidagi xaqiqiy obru- e'tiborli kishilardan o'zib yoki xodim o'z rahbaridan o'tkazib tuy - marosim xech vaqt kilmaydi. Shunday ekan xalqimizning ibratga moyillik fazilatidan foydalanish omilini birinchi galda rahbarlar va obruli shaxslarning tuy - marosim utkazish ishlarini maxalla orqali kat'iy nazoratga olish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. - "O'zbekiston". - 2008.
2. Karimov, Islom Abdug'aniyevich. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.: «Ma'naviyat», 2009. - 176 b.
3. I. Karimov. "Kamolot" Yoshlarimizning chinakam suyanchi va tayanchi bo'lsin". - T.: "O'zbekiston", 2001. - 48 b.
4. Avloniy A. Guliston yoxud axloq. Islom odobidan mumtoz namunalar. T., 1993. - 120 b.
5. Ananyev B.G. O psixologicheskix aspektax socializatsii. – Minsk: Izd-vo "Universitetskoye", 1998. - 321 s.
6. Andreyeva G.M. Sosialnaya psixologiya. - M.: Aspekt Press, 1999. - 373s.
7. Aronson E., Uilson T., Eykert R. Sosialnaya psixologiya. (Psixologicheskkiye zakony povedeniya cheloveka v sosiume. - SPb.: Piter, 2002. - 464 s.
8. Besova A.K. Duxovno-nravstvennoye vospitaniye lichnosti v prosesse literaturnogo obrazovaniya uchashixsya: Dis. ...kand. psixol. nauk. - M., 2000. - 176 s. Str. 27
9. Behbudiy. Tanlangan asarlar., - T.: "Ma'naviyat", 1999.
10. Begmatov A.S. - "Milliy g'oyada e'tiqodni shakllantirishning psixologik jihatlari" // ADU Ilmiy xabarnomasi., 2010. - 2 son.
11. Bodalev A.A., Rybalko Ye.F. B.G. Ananyev - pervootkryvatel i issledovatel slojneyshix problem psixologii // Psixologicheskiiy jurnal . - 1997. №6. - S. 16-23.
12. Bolshaya ensiklopediya psixologicheskix testov. - M.: Eksmo, 2007. - 416 s.
13. Bratus B.S. Psixologiya. Nravstvennost. Kultura. - M.: Rospedagentstvo, 1994. - 346 s., str. 17.
14. Buyeva L.P. Sosialnaya sreda i soznaniye lichnosti. – M.: Izd-vo "Institut prakticheskoy psixologii"; Voronej: Izd-vo NPo "MODEK", 1998. - 267 s.
15. Bern. Sh. Igrы, v kotorыye igrayut lyudi., 1998. - 398 s
16. Vozrastnaya psixologiya. V.S. Muxina. Fenomenologiya razvitiya, detstvo, otrochestvo. Moskva. Akademiya., 2000. - 456 s.
17. Vygotskiy L.S. K Voprosu o dinamike detskogo xaraktera. V kn Psixologiya individulal'nyx razlichiy // pod. red. Yu.B. Gippenreyter. - M., 2007. - 127 s.
18. Gresov A.G. Prakticheskaya psixologiya dlya roditeley i podrostkov. - SPb.: Izd-vo "Piter", 2006. - 160 s.
19. Giddens Entoni. Sosiologiya: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma/ Tarj. N. Mamatov va J. Begmatov. - T.: Sharq, 2002. - 848 b
20. Dyurkgeym. E. Sennostnyye realnyye sujdeniya. // Sosiologicheskkiye issledovaniya. - M.: Izd-vo "Refl-bug", 1997. - №2. - S 109-110.
21. Jo'rayev N. Milliy istiqlol mafkurasi shakllanish jarayoni. // Sharq mash'ali.; 1998. - 3-4 son. - 6-b.
22. Zinchenko V.P. Predmet psixologii: podiyem po duxovnoy vertikalii // Chelovek. - 2001. № 5. - S. 13 -26.

- 23.Ivanov P.I.,M.Ye.Zufarova.Umumiy psixologiya: Pedagogika va psixologiya bakalavr ta'limi yo'nalishi talabalari uchun darslik.-T.O'zb.Faylasuflar jamiyati nashriyoti, 2008.-480 b.
- 24.Kleyberg Yu.A.Psixologiya deviantnogo povedeniya: Ucheb.posobiye dlya vuzov.-M.,2001.-290 s.
- 25.Kornilova T.V.Idei aktivnosti poznaniya v otechestvennoy psixologii myshleniya // Psixologicheskiy jurnal.T.16.-1998. -№ 4.-s.61-72
- 26.Karimova V.M.Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Universitetlar va pedagogika institutlari talabalari uchun o'quv qo'llanma.Toshkent "Universitet" 1999.-95 b.
- 27.Karimova V.M.Psichologiya.O'quv qo'llanma-T.A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. "O'AJBNT"markazi, 2002.-171 b.
- 28.Karimova V.M. O'zbek yoshlarida oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Psixologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya .-T.: 1994.-312 b.
- 29.Qodirova A.T. "O'smirlarda oilaviy nizolar to'g'risida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi".,p.f.n olish uchun avtoreferat.Toshkent-2007.
- 30.Klesina I.S.Gendernaya socializatsiya: Uchebnoye posobiye.-SPb.:izd-vo RGPU im.Gersena.,1998.-98 s.
- 31.Kleyberg Yu.A.Psichologiya deviantnogo povedeniya: Ucheb.posobiye dlya vuzov.-M. Gumanit.izd.sentr VLADOS,2001.-528 s.
- 32.Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T., 2009. 707 bet.
- 33.Milliy g'oya va badiiy adabiyotda ota-bolalik an'analari. F.Kiyikboyev. Milly g'oya ilmiy to'plami. "Hayot nashriyoti" Andijon -2008.-87 b
- 34.Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lugat.-T.: Sharq, 1998. –B. 239.
- 35.Nemov R.S.Psichologiya: Ucheb.dlya stud.vysshey.ped.ucheb.zavedeniy: V 3 kn.-4-ye izd.-M.: Gumanit.izd.sentr VLADOS, 2003.-576 s.
- 36.Nora Nyukomb/ Razvitiye lichnosti rebyonka-8-ye izdaniye.-yu J.Piter, 2003-640 b.: il-/seriya "Mastera psixologii".
- 37.Nevirko D.D. Osobennosti socializatsii lichnosti v avtoritarnykh institutax Rossii 90-x godov: Avtoreferat. Diss.k.s.n. – Barnaul, 2000.
- 38.Nauchno-texnicheskaya revolyusiya i formirovaniye novogo cheloveka.Materialы kruglogo stola) \\. Voprosы filosofii.-1999.-№7.s.13-39).
- 39.Nikitin B.P., Nikitina L.A.Мы i nashi deti.3-ye izd.-M.: Izd-vo NPO "MoDEK",1995.-225 s
- 40.Nepomnyashaya N.I.Psichodiagnostika lichnosti: Teoriya i praktika. Ucheb.posobiye dlya stud.vyssh.ucheb.zaved.-M.: VLADOS.,2001.-192 s.
- 41.Petrenko V.F. Osnovy psixosemantiki. - Smolensk: Izd-vo SGU, 1997.S 211. Ponomarenko V.A. Psichologiya duxovnosti professionala. - M.: Ros. akad. obrazovan., 1997. - 342 s.
- 42.Psichologiya lichnosti v trudax otechestvennykh psichologov / Pod red. L.V.Kulakova. - SPb.: Piter, 2002.S - 457.
- 43.Psichologiya. Slovar/ Pod obщ.red.A.V.Petrovskogo, M.G.Yaroshevskogo.-2-ye izd.,ispr.i dop.-M.:Politizdat.1990.- 494 s

44. Psixologicheskiy slovar. –M. 2006, S.203
45. Ponomarenko V.A. Psixologiya duxovnosti professionala. - M.: Ros. akad. obrazovan., 1997. - 342 s.
46. Tulenov J., Gofurov 3. Mustaqillik va milliy tiklanish. -T., 1999. - B.223-224.
47. Uvatov U. Iymon nuri.- T.:Yozuvchi, 1996. .
48. Uchitelyam i roditelyam o psixologii podrostka: Nauch.-popul./ G.G.Arakelov, N.M.Jarikov, E.F.Zeyer i dr.; Pod red.G.G.Arakelova.-M.: Vyssh.shk., 1990.- 304 s.
49. Falsafa. Qomusiy lug'at. – T., 2004. 476-bet
50. Fiziologiya rosta i razvitiya detey i podrostkov: teoreticheskoye i klinicheskoye voprosy. Pod red.A.A.Baranova., L.A.Shemlyaginoy.,M.- 2000.-336 s.
51. Xayrullayev M.M. Buyuk siymolar, allomalar (O'rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar). . –T.: Xalq merosi, 1995. - B.100.
52. Xoxlova L.P., Formirovaniye mejlichnostnogo vospriyatiya u detey i podrostkov.Tashkent.Izd."Fan"-1990.-176 s. .
53. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. –T.:O'kituvchi, 1995.-B.69-70; Mux,ammad ibn Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. -T.:Fan, 1983
54. Shadrikov V.D. Duxovnyye sposobnosti. - SPb., 1997. -234 s
55. Sharipov R. Turkistonda jadidchilik harakati tarixidan.- T.: O'qituvchi, 2002. - B.8-21.
56. Shoumarov G'.B., Xaydarov I.O,Sog'inov N.A, Akramova F.A, Solixova G va b. Oila psixologiyasi: Akad.lisey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun qo'llanma.-T.: "Sharq",2008.-296 b.
57. Shpet G.G. Psixologiya sosialnogo bytiya. - M., 1996. 359.
58. Shubkin V.N.Molodyoj vstupayet v jizn. \ Voprosy filosofii. – 1989.- №5.- S. 57-71
59. Ensiklopedicheskiy filosofskiy slovar.Pod red.Ye.V.Gubskogo.-M.,1996.
60. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.2004. 5-jild.-B.270.
61. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild.2008 yil 370-bet.
62. O'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbekiston milliy eniklopediyasi"., 2-jild.T.: 2006 yil., 170-bet.
63. G'oziyev.E.Psixologiya: Yosh davrlar psixologiyasi.:Ped.institutlari va univ.talabalari uchun o'quv qo'll.-T.: O'qituvchi., 1994.-131-135 bet.
64. G'oziyev E.G'.Umumiy psixologiya."Universitet" nashriyoti.,2004.-77 b
65. G'oziyev E.G',R.N.Melibayeva. Ijtimoiy psixologiya.Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv uslubiy qo'llanma.-Toshkent-2009.- 143 b.
66. Maccoby F., g Jaklin, Cn.(2004)/The Psihology of sex differences.Stanford, C.A: Stanford University Press.
67. Money J.Sexual Dimorphism Homo –sexual Cender –Psihologocal Bullein,2007,№4,p5-440.
68. <http://www.nauka-shop.com/mod/shop/product/D/25417/>.
69. <http://www.nauka-psihologi.com/mod/shop/product/D/20548/>.

